

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 114 (1713), 2026-yil 6-iyun, shanba

www.yuz.uz
[yuz.uznews](https://www.facebook.com/yuz.uznews)
[yuz.uz_news](https://www.instagram.com/yuz.uz_news)
[yuz.uz_news](https://www.youtube.com/yuz.uz_news)


XALQARO IQTISODIY FORUMDA HAMKORLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH BO‘YICHA MUHIM TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 4-5-iyun kunlari amaliy tashrif bilan Sankt-Peterburg shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 5-iyun kuni Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining yalpi yig‘ilishida ishtirok etdi va nutq so‘zlatdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tanzaniya Prezidenti Samiya Suluhu Hasan hamda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi

o‘rinbosari Xan Chjen ham tadbirning asosiy spikerlari sifatida so‘zga chiqdi.

Davlatimiz rahbari nutqining avvalida tadbir ishtirokchilarini samimiy qutlab, O‘zbekiston bilan tarix, ma‘naviy yaqinlik va insoniy taqdir orqali bog‘langan Sankt-Peterburg shahriga yana bir bor tashrif buyurish imkoniyati uchun minnatdorlik bildirdi.

Transport yo‘nalishlarining o‘zgarishi, yangi ishlab chiqarish zanjirlarining shakllanishi, zamonaviy texnologik platformalarning paydo bo‘lishi va sun‘iy intellektning keng joriy etilishi bilan dunyoda kechayotgan chuqur transformatsiya jarayonlariga baho berildi.

— Raqobat nafaqat bozorlar va tabiiy resurslar uchun kurashda namoyon bo‘lmoqda, balki texnologiyalar, logistika va infratuzilma sohaslarida ham uning ta‘siri sezilmoqda, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimiz yetakchisi ta‘kidlaganidek, bugungi sharoitda birlashtiruvchi rol

o‘ynaydigan va o‘z atrofida kooperatsiya, barqarorlik hamda o‘zaro manfaatdorlik makonini shakllantirishga qodir bo‘lgan davlatlar va mintaqalarning ahamiyati ortib bormoqda.

— O‘zbekiston ming yillar davomida Buyuk ipak yo‘lining yuragi bo‘lib kelgan. Samarqand, Buxoro va Toshkent orqali

nafaqat mahsulotlar tashilgan, balki g‘oya va bilimlar, madaniy va diniy an‘analar bir-birini o‘zaro boyitib kelgan. Shuning uchun ham ochiqlik biz uchun doimo tanlov emas, balki hayotiy zarurat va sivilizatsiya kodi hisoblangan, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

▶ Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PETERBURG XALQARO IQTISODIY FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli Vladimir Vladimirovich!
Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!
Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, hurmatli Vladimir Vladimirovich Putinga mazkur forumga taklif etgani va samimiy mehmondo‘stlik uchun chin dildan minnatdorlik bildirdim.

Shuningdek, Tanzaniya Prezidenti Samiya Suluhu Hasan xonimni, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi o‘rinbosari Xan Chjen janoblarini qutlayman.

O‘zining o‘ttiz yillik faoliyati davomida jahon miqyosidagi eng muhim masalalar yuzasidan fikr almashish bo‘yicha nufuzli va zarur muvoqot maydonlaridan biriga aylangan Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida ishtirok etish men uchun katta sharaftdir.

O‘zbekiston bilan tarix, ma‘naviy yaqinlik va insoniy taqdir orqali bog‘langan Rossyaning madaniy poystaxti — Sankt-Peterburg shahrida bugun yana bir bor bo‘lib turganidan g‘oyat xursandman.

Urushning og‘ir yillaridako‘plabo‘zbekistonliklar Leningrad mudofaasida qatnashgan, Toshkent esa bir yarim million nafardan ortiq evakuatsiya qilingan bolalar, ayollar va keksalarga boshpana bergan edi. Bu haqdagi xotira umumiy ma‘naviy makonimizning bir qismi bo‘lib qolmoqda.

Hurmatli forum ishtirokchilari!
Bugun aynan shu yerda, Neva bo‘yida biz o‘tmishni yod etib, kelajak va global iqtisodiyotning yangi arxitekturasiga oid masalalarni muhokama qilmoqdamiz.

Dunyo chuqur qayta qurish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Transport yo‘nalishlari

o‘zgarimoqda, yangi ishlab chiqarish zanjirlari shakllanmoqda. Zamonaviy texnologik platformalar paydo bo‘lib, barcha sohalarda sun‘iy intellekt joriy etilmoqda. Energetik, oziq-ovqat va raqamli xavfsizlik masalalari tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Raqobat nafaqat bozorlar va tabiiy resurslar uchun kurashda namoyon bo‘lmoqda, balki texnologiyalar, logistika va infratuzilma sohaslarida ham uning ta‘siri sezilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida beqarorlik hukm surayotgan sharoitda birlashtiruvchi rol o‘ynaydigan va o‘z atrofida kooperatsiya, barqarorlik hamda o‘zaro manfaatdorlik makonini shakllantirishga qodir bo‘lgan davlatlar va mintaqalarning ahamiyati ortib bormoqda.

O‘zbekiston ming yillar davomida Buyuk ipak yo‘lining yuragi bo‘lib kelgan. Samarqand,

Buxoro va Toshkent orqali nafaqat mahsulotlar tashilgan, balki g‘oya va bilimlar, madaniy va diniy an‘analar bir-birini o‘zaro boyitib kelgan. Shuning uchun ham ochiqlik biz uchun doimo tanlov emas, balki hayotiy zarurat va sivilizatsiya kodi hisoblangan. Hozirgi kunda u yangicha ma‘no-mazmun kasb etib bormoqda.

O‘zbekiston va umuman, Markaziy Osiyo mustaqil iqtisodiy o‘shish markaziga aylanmoqda. Bu mintaqada kelajakning transport, texnologiya va demografiya sohaslaridagi qiyofasi namoyon bo‘lmoqda. Ushbu makonda Shimol va Janub, G‘arb va Sharq o‘rtasidagi asosiy kommunikatsiyalar chorrahasi shakllanmoqda.

Kuchayib borayotgan ayni tendensiyani yanada mustahkamlash uchun bizga sifat jihatidan yangi darajadagi bog‘liqlik nihoyatda zarur. Bu

o‘rinda nafaqat an‘anaviy transport-logistika va energetika yo‘laklarini birlashtirish, balki raqamli, to‘lov va ishlab chiqarish infratuzilmalarini integratsiya qilish haqida ham so‘z bormoqda. Kuchli, birlashgan, iqtisodiy jihatdan bog‘langan, ochiq va barqaror Markaziy Osiyo barcha sheriklarimizning strategik manfaatlariga javob beradi.

Xonimlar va janoblar!
O‘zbekiston uchun Rossiya mintaqadagi shunchaki qo‘shni emas. Bu davlat bizning vaqt sinovidan o‘tgan strategik sherigimiz va ittifoqchimizdir.

Bugungi kunda o‘zaro munosabatlarimiz yangi davrga qadam qo‘ydi. Hamkorlik ko‘p darajali va ko‘p qirrali tus oldi.

Biz mahsulotlarning oddiy savdo-sotig‘idan murakkab sanoat zanjirlari, texnologik alyanslar,

birgalikda loyihalashtirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga qadar bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdik. Bizning statistik ma‘lumotlarimizga ko‘ra, so‘nggi 10-yilda o‘zaro mahsulot aylanmasi uch barobardan ko‘proq — 4 milliard dollardan 13 milliard dollarga oshdi. Rossiya bilan hamkorlikdagi loyihalarning umumiy portfeli 50 milliard dollardan ortadi.

Ikki davlat hududlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik izchil kengaymoqda. Bu jarayonga bizning asosiy hamkorlarimiz — Moskva va Sankt-Peterburg shaharlari, Moskva va Leningrad viloyatlari, Tatariston va Boshqirdiston, Krasnoyarsk va Perm o‘lkalari, shuningdek, Rossiyaning boshqa ko‘plab hududlari faol jalb qilingan.

▶ Davomi 2-beta



Islohotlar ostonasi

O‘ylab qararasam, sayohat va falsafaning umumiy jihatlari juda ko‘p — hayratlanish, atrofimizdagi dunyoni, umuman, uning qonunlari va mohiyatini tushunish va bilish istagi. Oldin ham, hozir ham hayrat tuyg‘usi odamlarni tafakkurga undagan. Mavjudlik har doim



individual hayot bo‘lib, shaxsning umrini tashkil etuvchi umidlar, intilishlar, tajribalar bilan to‘la. Inson aynan mavjud hayotiy vaziyatlarning chegaralaridan tashqariga chiqish qobiliyati tufayli o‘zini anglaydi. Yangi yo‘llar, tasodifiy uchrashuvlar va boshqa holatlar o‘zingizni kashf qilish uchun nihoyatda zarur.

Sayohat odamlarning hayotiy tajribasini boyitib, boshqa madaniyatlar olamiga kirishiga imkon beradi. Safar orqali inson o‘zining odatiy yashash tarzidan farq qiladigan “boshqa”ning ajralmas imkoniyatlarini his etadi.

▶ Davomi 3-beta



URGUT

— YANGILANAYOTGAN VATAN
TIMSOLINING HAYOTBAXSH IN‘IKOSI

“Abituriyent — 2026”

QABUL BOSHLANDI

Yoshlar kamolotida hal qiluvchi fursat



Shu yil 5-iyundan mamlakatimizdagi oliy va kasbiy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirish uchun hujjatlar qabuli boshlandi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, bu yil ham OTMLar bakalavriatiga qabul jarayoni ikki bosqichda — “Avval test, so‘ng tanlov” tamoyiliga muvofiq o‘tkaziladi.

▶ Davomi 2-beta

XALQARO IQTISODIY FORUMDA HAMKORLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH BO'YICHA MUHIM TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari O'zbekiston — Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilib, savdo-iqtisodiy hamkorlik, hududlararo aloqalar, sanoat kooperatsiyasi hamda energetika sohasidagi sheriklik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini alohida qayd etdi.

O'zbekiston va Rossiyaning texnologik hamda sanoat kooperatsiyasini yanada kengaytirish maqsadida yagona raqamli platforma bilan birlashtirilgan ishlab chiqarish klasterlari tizimi — "Yevroosiyo texnologik sanoatlashirish kamari"ni tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Ish o'rinlari yaratishga, logistika, to'lov xizmatlari hamda yangi eksport imkoniyatlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi raqamlashtirish sohasi hamkorlikning ishtirokchisi sifatida belgilandi.

Raqamli savdo va shahar servislarini tartibga solish qoidalarini yaqinlashtirish, O'zbekiston va Rossiya brendlarini hamkorlikdagi platformalarda ilgari surish, sun'iy intellekt asosida mahsulotlarni rivojlantirishni o'zida qamrab olgan qo'shma Raqamli ektotizimni shakllantirishga kirishish taklif etildi.

O'zbekiston dunyoning yoshlari eng ko'p mamlakatlaridan biri ekanini hisobga olib, vazifasi ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozorini o'zaro bog'lashdan iborat bo'lgan Inson kapitalini rivojlantirish qo'shma onlayn-platformasini yaratish tashabbusi ilgari surildi.

Hamkorlikning madaniy-gumanitar yo'nalishini yanada mustahkamlash maqsadida "Samarqanddan Peterburggacha" kreativ-turistik yo'lak loyihasini ishga tushirish ham taklif etildi. Ushbu tashabbus san'at va kino festivallari, muzey ko'rgazmalari, gastronomiya haftaliklari va musiqiy tadbirlarni birgalikda tashkil etishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarning muhim natijalariga alohida to'xtalib o'tildi.

— Bundan o'n yil oldin ochiq-lik, inklyuzivlik va pragmatizmga tayangan holda Yangi O'zbekistonni barpo etishni boshlagan edik. O'tgan davrda uzoq muddatli o'sish uchun mustahkam asos — qulay ishlabarmonlik muhiti, barqaror sanoat bazasi va yangi infratuzilma yaratildi, — dedi davlatimiz rahbari.

Yosh, faol va tez o'sib borayotgan aholi O'zbekistonning asosiy ustunliklaridan biri bo'lib, tadbirkorlik, texnologiyalar, servislar va sanoatni rivojlantirishning uzoq muddatli poydevori ekanligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, erishilayotgan o'sish nafaqat jadal, balki barqaror, inklyuziv va insonlar hayot sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligi qayd etildi.

Qulay ishlabarmonlik muhiti yaratish, bozor institutlarini takomillashtirish, raqobat darajasini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish orqali global investitsiyalarni jalb etish uchun shart-sharoitlar izchil shakllantirilayotgani bildirildi.

Forum qatnashchilari tashkil etilayotgan Toshkent xalqaro moliya markaziga berilgan maxsus huquqiy maqom va soliq imtiyozlari imkoniyatlaridan foydalanishga, shuningdek, joriy yilning 16-18-iyun kunlari bo'lib o'tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif etildi.

Yakunda davlatimiz rahbari ochiq va o'zaro hurmatga asoslangan muloqot hozirgi kunda barqaror rivojlanishning asosiy shartiga aylanayotganini, ishonch, hamkorlikka tayyorlik va birgalikda yechim izlashga intilish bor joyda yangi imkoniyatlar paydo bo'lishini yana bir bor ta'kidladi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrif yakunlandi.

O'ZA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PETERBURG XALQARO IQTISODIY FORUMIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Amalga oshirilayotgan hududlararo loyihalar hajmi 5 milliard dollarni tashkil etadi, yana 5 milliard dollarlik investitsiyalar paketi tayyorlanmoqda. O'zaro hamkorlik barcha muhim sohalarni, jumladan, energetika, kimyo va neft-kimyo, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, logistika, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarni qamrab olmoqda. Loyihalar qatorida O'zbekistonning beshta hududidagi qo'shma sanoat parklari va Toshkentda tashkil etilgan qo'shma vagonsozlik klasteri alohida e'tiborga loyiqdir.

Energetika sohasidagi hamkorlikka alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Investitsiya loyihalari, jumladan, Rossiya ishtirokidagi loyihalar hisobidan biz elektr energiyasi ishlab chiqarishni bir yarim barobar — 58 milliard kilovatt-soatdan 87 milliard kilovatt-soatgacha oshirdik. 2030-yilgacha generatsiyani 120 milliard kilovatt-soatgacha ko'paytirishni rejalashtirmoqdamiz. Uning 54 foizini qayta tiklanadigan energiya manbalari tashkil etadi.

Bizning energetika sohasidagi quvvatlarimiz, shuningdek, O'zbekistonda Rossiya ishtirokida birinchi gibrad atom elektr stansiyasining ishga tushirilishi hisobidan ham ortadi. Kecha biz Vladimir Vladimirovich bilan AES qurilishining birinchi poydevorini qo'yish marosimida qatnashdik. Biz uchun bu uzoq muddatli rivojlanish, yangi muhandislik maktabini tayyorlash va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan loyihadir.

Atomdan tinch maqsadlarda foydalanish bo'yicha boshqa sohalar — tibbiyot, qishloq xo'jaligi, sanoat va ilm-fanda ham hamkorlikda ish olib borish niyatidamiz.

Aziz do'stlar! Hozirgi sharoitda O'zbekiston va Rossiyaning texnologiyalar hamda sanoat sohasidagi hamkorligi faqat ikki tomonlama alohida doirasida cheklanib qolmasligi kerak.

Biz sanoat bo'yicha salohiyatini, resurslar, bozorlar va kompetensiyalarni birlashtirishga qodir bo'lgan ulkan kooperatsiya makonini yaratishni mo'ljal qilaymiz. Aynan shuning uchun biz "Yevroosiyo texnologik sanoatlashirish kamari"ni shakllantirish tashabbusi bilan chiqmoqdamiz. Bu sanoat kooperatsiyasining yagona raqamli platformasi bilan birlashtirilgan ishlab chiqarish va texnologik klasterlarning o'zaro bog'liq tizimidir. Bu o'rinda texnologiyalarni ishlab chiqish va kadrlar tayyorlashdan tortib, sanoat ishlab chiqarishini mahalliyashtirish va tashqi bozorlarga chiqishgacha bo'lgan to'liq sikllni zanjirlarni yaratish haqida so'z barmokda.

Ushbu tashabbusni sinovdan o'tgan, har yili Toshkentda o'tkaziladigan "INNOPROM. Markaziy Osiyo" innovatsion-sanoat ko'rgazmasi platformasi bazasida amalga oshirishni taklif etamiz. Bunday yondashuv biznes uchun hamkorlarni to'g'ridan-to'g'ri topish va o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish imkonini beradi.

Xonimlar va janoblar! Hamkorlikning ishtirokchisi bo'lishi, hech shubhasiz, iqtisodiyotning yangi muloqot vositasi, ta'bir joiz bo'lsa, tiliga aylangan raqamlashtirishdir.

Agar ilgari infratuzilma deganda, yo'llar, quvurlar va elektr uzatish tarmoqlari tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda bu, avvalo, raqamli platformalar demakdir. Ular o'z atrofida yaxlit ektotizimni — ish o'rinlari, logistika, to'lov xizmatlari, yangi eksport imkoniyatlarini shakllantirmoqda.

O'zbekiston biznesi raqamli yechimlarni faol rivojlantirmoqda va ayni paytda keng doiradagi mamlakatlardan bilan texnologik hamkorlik uchun

ochiqdir. Masalan, Rossiya marketpleyslari va raqamli servislar orqali mahsulotlarimiz savdosi hajmi so'nggi bir necha yilda 3,5 barobar o'sib, bir yarim milliard dollardan oshdi.

Hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida qo'shma Raqamli ektotizimni shakllantirishga kirishishni taklif etamiz. Ilk bosqichda u raqamli savdo va shahar servislarini tartibga solish qoidalarini yaqinlashtirish, O'zbekiston va Rossiya brendlarini hamkorlikdagi platformalarda ilgari surish, bandlik bo'yicha yagona raqamli profilni yaratish, sun'iy intellekt asosida mahsulotlarni rivojlantirishni o'zida qamrab olishi mumkin. Bu biznes uchun yangi bozorlar, fuqarolar uchun esa daromad topishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Ayni paytda raqamlashtirishni keng o'zlashtirishga intilarkan biz, har qanday o'zgarishlar negizida doimo inson turishini yodda tutish muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning eng yosh mamlakatlaridan biri bo'lib, aholisining yarmidan ko'pincha yoshlar tashkil etadi. Bu shunchaki o'zdiy statistika emas. Bu — rivojlanish uchun quvvat, energiya manbai. Bu — yangi talab. Bu — bizning kelajagimiz.

Shu bois, bizning vazifamiz faqat yoshlarga zamonaviy bilim berishdan iborat emas. Yoshlar ilg'or kompetensiyalarni o'zlashtirishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun imkon beradigan sharoitlarni yaratish muhimdir. Bu o'rinda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik alohida o'rin tutadi.

O'zbekistonda xorijiy oliygohlarning 32 ta, jumladan, Rossiya oliy ta'lim muassasalarining 15 ta filiali faoliyat yuritmoqda. Bu Rossiyaning xorijdagi eng yirik universitetlar tarmog'i hisoblanadi.

Shu bilan birga, kasbiy ta'lim, ayniqsa, amaliyotga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlash dasturlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bizda bu borada allaqachon muvaffaqiyatli misollar bor. Olmalik va Toshkentda birinchi qo'shma muhandislik maktablari ishga tushirildi.

Onlayn ta'lim servislarini mazkur sohadagi samarali hamkorlik mexanizmi bo'lishi mumkin. Bunday servislarining ishga tushirilishi yoshlarga hatto eng chekka hududlarda ham zarur bilimlarni olish imkonini beradi. Bu mehnat mobiligi modelini tubdan o'zgartiradi va uni tashkil etishni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqadi.

Shu munosabat bilan biz Inson kapitalini rivojlantirish qo'shma onlayn-platformasini yaratishni taklif etamiz. Uning vazifasi — ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozorini o'zaro bog'lashdan iborat.

Ushbu tizimda ta'lim dasturlari, til o'rgatish va axborot texnologiyalari kurslari, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ish beruvchilar bilan bog'lanish imkoniyatlarini birlashtirilishi mumkin.

Yoshlar uchun bu yangi iqtisodiyot sari aniq ravshan yo'nalish bo'ladi. Biznes uchun tayyor kadrlar bazasidan foydalanish imkoniyatidir. Universitetlar va kollejlar uchun bozorning real talabi bilan aloqa vositasidir. O'zbekiston va Rossiya uchun esa eng oliy qadriyat bo'lgan insonlarga uzoq muddatli sarmoyadir.

Agar hurmatli Vladimir Vladimirovich ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlasa, sohaviy idoralarimizga bunday platformani imkon qadar tezroq ishga tushirish vazifasini topshiramiz.

Hamkorligimizning gumanitar asosi sifatida turizmni alohida ko'rsatib o'tishni istar edim. Ushbu tarmoq ishonch iqtisodiyotini hamdamdan ko'ra yaxshiroq shakllantiradi.

Odamlar O'zbekistonga kelar ekan, nafaqat tarixiy yodgorlik va shaharlarni, balki madaniyatni, mehmondo'stlik, ishlabarmonlik muhiti va biznes uchun imkoniyatlarini ham ko'radi. 2025-yilda bizning mamlakatimizda qariyb bir million rossiyalik mehmon bo'ldi, bu yil esa biz yanada ko'proq sayyohni qabul qilishga tayormiz. Buning uchun nafaqat turistik infratuzilmani, balki kreativ iqtisodiyotni ham rivojlantiryapmiz. 2030-yilga borib, uning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 5 foizni tashkil etadi. Bu esa ushbu ijodiy sohani iqtisodiy o'sishning drayverlaridan biriga aylantiradi.

Hamkorligimizning madaniy-gumanitar yo'nalishini mustahkamlash maqsadida "Samarqanddan Peterburggacha" kreativ-turistik yo'lak loyihasini ishga tushirishni taklif etamiz. Ushbu tashabbus san'at va kino festivallari, muzey ko'rgazmalari, gastronomiya haftaliklari va musiqiy tadbirlarni birgalikda tashkil etishni nazarda tutadi.

Kecha Mariinskiy teatri va "Ermitaj" davlat muzeyida O'zbekiston madaniyati va san'atiga doir loyihalar boshlandi.

Hurmatli forum ishtirokchilari! 2026-yil mamlakatimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Biz tizimli islohotlarning muhim marrasiga yaqinlashmoqdamiz. Bundan o'n yil oldin ochiq-lik, inklyuzivlik va pragmatizmga tayangan holda, Yangi O'zbekistonni barpo etishni boshlagan edik. O'tgan davrda uzoq muddatli o'sish uchun mustahkam asos — qulay ishlabarmonlik muhiti, barqaror sanoat bazasi va yangi infratuzilma yaratildi.

Iqtisodiyotimiz hajmi 50 milliard dollardan 147 milliard dollarga oshdi, joriy yil esa 8 foizdan yuqori o'sishni prognoz qilmoqdamiz. Islohotlar boshlanganidan buyon mamlakatimizga 150 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, minglab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Tovar va xizmatlar eksporti qariyb 3 barobar oshdi. O'zbekiston hatto hozirgi global beqarorlik sharoitida ham barqaror o'sish dinamikasini namoyish etmoqda. Iqtisodiyotimiz yanada ko'p qirrali bo'lib bormoqda, ichki bozor kengaymoqda, zamonaviy texnologiyalar, infratuzilma va sifati ish o'rinlariga talab ortmoqda.

Yosh, faol va tez o'sib borayotgan aholi O'zbekistonning muhim ustunliklaridan biridir. Bu tadbirkorlik, texnologiyalar, servislar va sanoatni rivojlantirishning uzoq muddatli bazasidir.

Ammo demografik o'sish o'z-o'zidan muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Bu salohiyatni kuchli intellektual resurs — kompetensiyalarga, unumdorlikka, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar va texnologiyalar yaratish qobiliyatiga aylantirishimiz kerak.

Biz islohotlarimizning ilk davridanoq bozor samaradorligi va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirishga harakat qilib kelyapmiz. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish modelining o'ziga xosligi aynan shu jihat bilan belgilanadi. O'sish nafaqat tez sur'atlarda, balki barqaror, inklyuziv va odamlarning hayot sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Faqat so'nggi 5-yilda aholing umumiy daromadlari 2,5 barobar oshdi. Biz uchun asosiy mezon bu yuqori hayot sifati, inson qadr-qimmatini va har bir odamning salohiyatini ro'yobga chiqarishdir.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi aynan shu maqsadga erishishga xizmat qiladi. Ushbu davrga qadar biz aholi daromadlarini o'rta darajada yuqori darajaga ko'tarish, barcha sohalarini texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish, iqtisodiyot hajmini yana bir yarim barobar — 240 milliard dollardan ko'proqqa oshirish niyatidamiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari! O'zbekistonda global investitsiyalar uchun barcha shart-sharoitlar izchil shakllantirilmoqda. Qulay ishlabarmonlik muhiti yaratilmoqda, bozor institutlari takomillashtirilmoqda, raqobat darajasi va ishlab chiqarish salohiyati ortmoqda.

Ushbu forumda ishtirok etayotgan investorlarni yuqori qo'shimcha qiymatli yangi sanoat zanjirlarini yaratishga taklif etamiz. Kompetensiyalarni, ishlab chiqarish va ishlabarmonlik chuqur mahalliyashtirish, shuningdek, zamonaviy injiniring va yangi eksport yo'nalishlarini rivojlantirish bizning ustuvor vazifamizdir. Bu bugungi kunda sanoat usulida qayta ishlash, agrotexnologiyalar, biokimyo, robototexnika, raqamli yechimlar va sun'iy intellekt kabi yangi iqtisodiyot shakllanayotgan sohalarida ayniqsa muhimdir.

Energetika, aviatsiya, ta'lim, geologiya va boshqa ko'plab sohalarida davlat-xususiy sheriklik tamoyili shaklida amalga oshirilayotgan loyihalarda biz hamkorlik uchun katta salohiyatni ko'rmoqdamiz.

Manfaatdor sheriklarimizga nafaqat o'sib borayotgan ichki bozorimiz, balki qo'shni mamlakatlar va mintaqalarga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatini ham taklif etamiz.

Aziz do'stlar! O'zbekiston global ishlabarmonlar hamjamiyati uchun ishonchli va barqaror mamlakatdir. Iqtisodiyotimizning yuqori darajada ochiqlik sari harakat qilayotgani yetakchi reyting agentliklari tomonidan xolis tasdiqlanmoqda. Faqat shu yilning o'zida mamlakatimiz Iqtisodiy erkinlik indeksida yana 14 pog'ona yuqori ko'tarildi.

So'nggi yillarda biz xalqaro bozorlarga 16 milliard dollarlik suveren va korporativ obligatsiyalarni joylashtirdik. O'tgan oyda London bog' birjasida eng yirik davlat kompaniyalarining aktivlarini birlashtirgan O'zbekiston Milliy investitsiya fondining aksiyalari birinchi marotaba omniyaviy savdoga chiqarildi.

Kapital bozorini yanada rivojlantirish, barqaror moliyaviy va investitsiyaviy platformani shakllantirish maqsadida eng yaxshi standartlar asosida ishlaydigan Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishga kirishdik. Markazning maxsus huquqiy maqomga va soliq imtiyozlariga ega ekanini investorlarga biznes yuritish uchun qulay vosita va ishonchli kafolatlarni taqdim etadi.

Fursatdan foydalanib, barchangizni 16-18-iyun kunlari bo'lib o'tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumiga taklif etaman. Ushbu anjuman doirasida Yangi O'zbekistonning yangi imkoniyatlari va istiqbolini bilan bevosita tanishish mumkin bo'ladi.

Xonimlar va janoblar! Albatta, bugungi forumning "Pragmatik muloqot — barqaror kelajak sari yo'l" degan shiori ramziy ma'noga ega. Chindan ham aynan ochiq va o'zaro hurmatga asoslangan muloqot hozirgi kunda barqaror rivojlanishning asosiy shartiga aylanmoqda. Ishonch, hamkorlikka tayyorlik va birgalikda yechim izlashga intilish bor joyda yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. O'zbekiston va Rossiya sherikligi bunday hamkorlikning yorqin namunasi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, hurmatli Vladimir Vladimirovich Putinga ushbu keng ko'lami xalqaro forumga taklif etgani hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini taqdim etish imkoniyatini yaratgani uchun yana bir bor samimiy minnatdorlik bildiraman.

So'zimizning yakunida barcha ishtirokchilarga samarali faoliyat yuritishlari va qiziqarli fikr almashishlarini tilayman.

"Abituriyent — 2026" QABUL BOSHLANDI

Yoshlar kamolotida hal qiluvchi fursat

Boshlanishi 1-betda

Ro'yxatdan qanday o'tiladi?

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, birinchi bosqichda abituriyentlar har yilgidek 5-iyundan 25-iyungacha qadar (shu kuni ham) test sinovi topshirish uchun Bilimni baholash agentligining my.uzmbm.uz saytida onlayn ro'yxatdan o'tadi. Buning uchun "Ro'yxatdan o'tish" oynasiga abituriyentning pasporti seriyasi va raqami, shaxsiy identifikatsiya raqami, telefon raqami, parol, takroriy parol hamda arifmetik ifodaning qiymati (4+5 = 9) yoziladi. Shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga rozilik bildirgan holda "Ro'yxatdan o'tish" tugmasi bosiladi. Shundan so'ng abituriyentning telefon raqamiga SMS xabar yuboriladi. Undagi 5 xonali raqam dasturga kiritilib, ma'lumotlar tasdiqlanadi. Agar abituriyent ushbu saytda oldin ro'yxatdan o'tgan, ya'ni takror hujjat topshirayotgan bo'lsa, "Kiritish" bo'limiga telefon raqami, parol va arifmetik ifoda qiymatini kiritgan holda shaxsiy kabinetga kirishi mumkin. Shuningdek, shaxsiy kabinetga One ID tizimi orqali kirish imkoni ham mavjud. Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlariga qabul bo'limiga kirib, "Xizmatdan foydalanish" tugmasi bosiladi. Abituriyentning doimiy yashash manzili Ichki ishlar vazirligining "Manzil" axborot tizimidan olinadi. Abituriyentning yashash manzili avtomatik shakllanmagan bo'lsa, o'zi to'ldiradi. "Tugatgan ta'lim muassasasi" oynasidan abituriyent tamomlagan ta'lim muassasasi joylashgan hudud, muassasasi turi, nomi hamda

tugatgan yili tanlanib, hujjat seriyasi va raqami yoziladi. Agar abituriyent tugatgan ta'lim muassasasi dasturda mavjud bo'lmasa, muassasa turidan "Boshqa o'quv yurti" tanlanib, muassasa nomi yozma kiritiladi. Joriy yilgi bitiruvchilarning ma'lumoti tegishli vazirlik va idoralardan real vaqt rejimida olingani bois, ular tugatgan ta'lim muassasasi bo'yicha ma'lumotlarni kiritmaydi. Ariza topshirish bo'limida oferta bilan tanishib tasdiqlagandan so'ng test topshiriladigan hudud va ta'lim tili, so'ng test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi tanlanadi. Agar abituriyent faqat test sinovida ishtirok etadigan bo'lsa, fanlar majmuasi, ta'lim tili, test topshirish hududi tanlanadi. 2026/2027-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va ularga mos test sinovi (kasbiy (ijodiy) imtihon) topshiriladigan fanlar majmuasi tasdiqlandi, 227 ta yo'nalish mavjud. Abituriyent tanlagan fanlar majmuasida chet tili bo'lsa, tegishli chet tili ham tanlanishi lozim. Agar fanlar majmuasida kasbiy (ijodiy) imtihon mavjud bo'lsa, ta'lim tili, test topshirish hududi, alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishi, kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriladigan oliygoh tanlanadi. Fanlar majmuasi tanlangandan so'ng ushbu fanlar majmuasiga mos ta'lim yo'nalishlari ro'yxati bilan tanishish mumkin. "Saqlash" tugmasi bosilgandan so'ng ma'lumotlarni tasdiqlash uchun abituriyentning telefon raqamiga SMS xabar yuboriladi. SMS xabardagi kodni dasturga kiritish orqali ma'lumotlar tasdiqlanadi. Shundan so'ng abituriyentning qayd varaqasi shakllanadi. Varaqada uning shaxsiy ma'lumotlari,



imtihon ma'lumotlari, imtiyozlari, abituriyentlarga eslatma va abituriyent ro'yxatiga olingan vaqt aks etgan bo'ladi. "Yuklab olish" tugmasi orqali abituriyent qayd varaqasini yuklab olishi mumkin.

Kimlar imtihon topshirish uchun pul to'lamaydi?

Qayd varaqasida abituriyentlar pul to'lashi uchun inoyo hosil bo'ladi. To'lovni amalga oshirish bilan ro'yxatdan o'tishning birinchi bosqichi yakunlanadi. Pulni elektron to'lov

tizimlari yoki bank kassalari orqali to'lash mumkin. Test topshirish uchun to'lov miqdori BHMning 50 foizi miqdorida (206 ming so'm) bo'ladi. Bunda nogironligi bo'lgan shaxslar, to'liq davlat ta'minotidagi shaxslar, Ijtimoiy himoya yagona reyestri axborot tizimida ro'yxatga olinganlar va ularning farzandlari, "Yoshlar daftrari"ga kiritilganlar va ta'lim muassasalarini joriy yilda tugatgan abituriyentlardan to'lov undirilmaydi. Ushbu toifadagi abituriyentlar uchun inoyo shakllantirilmaydi. Birinchi bor oliygohlarga hujjat topshirayotgan abituriyentlar ham to'lov qilmaydi.

Imtiyozlardan foydalanish tartibi qanday?

Agar abituriyentda umumta'lim fanlaridan milliy sertifikat bo'lsa, undan foydalanishni tasdiqlashi yoki rad etishi kerak. Masalan, abituriyent olgan sertifikatga kam ball beriladigan bo'lsa, u bundan ko'proq ball yig'ishiga ishoncha, sertifikatdan foydalanishni rad etadi. Umumta'lim fanlaridan maksimal ball beruvchi sertifikat ma'lumotlari avtomatik shakllanadi. Chet tilidan B1 darajadagi milliy sertifikat mavjud bo'lganda sertifikatdan foydalanishni tasdiqlash yoki rad etish lozim. Chet tilidan B2 va undan yuqori darajadagi milliy sertifikat ma'lumotlari ham avtomatik shakllanadi. Abituriyentning chet tilidan yoki umumta'lim fanlaridan xalqaro sertifikat mavjud bo'lsa, "Xalqaro sertifikatlar" bo'limiga sertifikat ma'lumotlari kiritiladi. Boshqa turdagi imtiyozlar tegishli vazirlik va idoralardan olingan ma'lumotlar asosida avtomatik to'ldiriladi. Agar "Imtiyozlar" bo'limida abituriyentning imtiyoz chiqmasa, imtiyozni taqdim etgan vazirlik yoki idoraga murojaat qilinish lozim. Endi Prezidentimizning 2026-yil 7-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tash nufuzi va jozibadorligini oshirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar ham xizmatni o'tash davrida amaldagi tartibda oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriatining masofaviy ta'lim shakliga abituriyent sifatida ro'yxatdan o'tishi mumkin.

"Qabul — 2026" shtabi faoliyatini yo'lga qo'yildi

Ikkinchi bosqichda abituriyentlar kirish imtihonlari to'liq yakunlanganidan so'ng 15 kun davomida my.uzmbm.uz sayti orqali oliy ta'lim muassasasi, bakalavriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli, tanlov ustuvorligini tanlaydi. Bunda u o'zi jam'angan ballarni tahlil qilishi, shunga ko'ra 5 tagacha ta'lim yo'nalishini tanlashi mumkin. 5 ta sertifikat olib, muddatidan oldin talaba bo'lganlar ham sertifikatining umumiy balidan kelib chiqib tanlaydi. Ta'lim yo'nalishlarini bitta yoki bir necha OTM doirasida tanlash ham mumkin. Masalan, tibbiyot yo'nalishidagi oliygohni olsak. Abituriyent o'qishni istayotgan 5 ta yo'nalish shu oliygohning o'zida bo'lishi mumkin. Bo'lmasa, boshqa OTMlardan tanlaydi. Oliyoghlarga kirish imtihoni iyul-avgust oylarida o'tkaziladi. Abituriyent test sinovida necha ball to'plaganini imtihon o'tkazilgan kunning ertasiga bilishi mumkin. Uning talabalikka tavsiya etilgani yoki etilmagani qabul jarayonining ikkinchi bosqich to'liq yakunlangandan keyin bir hafta muddatda Bilimni baholash agentligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Texnikumlarda o'qish istagini bildirgan abituriyentlar oliygohlarga qabulning yakuniy natijasi e'lon qilindigandan so'ng 10 kun muddatda texnikum, kasb va mutaxassislik va ta'lim shaklini tanlaydi. Natija bir hafta muddatda Bilimni baholash agentligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Ayni paytda abituriyentlar va ota-onalarga qulayliklar yaratish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda barcha oliy ta'lim tashkilotlarida "Qabul — 2026" shtabi faoliyatini yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, fuqarolar vazirligining 1006, agentlikning 1195 ishonch telefoni yoki @EduuzUniversalBotga murojaat qilgan holda o'zlarini qiziqitgan savollarga javob olishi mumkin.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Gegelning miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuniyatini eslasak, inson hayotidagi har bir yaxshi yangilik to'planib borib, pirovardida butun jamiyatning tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Urgutda ana shunday to'liq allaqachon boshlangan.



Islohotlar ostonasi

URGUT

– YANGILANAYOTGAN VATAN

TIMSOLINING HAYOTBAXSH IN'IKOSI



Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Urgutga qarab yo'lgan poyezd menga ana shu hissiyotni taqdim etdi. Kattayu kichik urgutlikning so'ziga quloq tutarkanman, hamma Prezidentimiz Urgutga kelgani va juda katta bunyodkorlik ishlari boshlangani, yirik dasturlarni amalga oshirishga kirishilganini aytadi. Bir paytlar ishsizlik eng katta muammo bo'lgan Urgutdagi ushbu ruhiy yuksalish qachon paydo bo'ldi ekan? Qaysi kundan boshlab Urgutda bekorchi odamni topish qiyin bo'lib qoldi? Qanday qilib urgutliklarning o'y-fikrlari, orzu-umidlari kattalashib, ijtimoiy tus oldi?

Gegelning miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuniyatini eslasak, inson hayotidagi har bir yaxshi yangilik to'planib borib, pirovardida butun jamiyatning tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Urgutda ana shunday to'liq allaqachon boshlangan.

Urgut katta salohiyatga ega hudud sifatida tobora muhim o'rin egallab borayotgani rost. Bu yerdagi aholi bishlarmon, tadbirkorlik kayfiyati kuchli, — deydi "Shahar atrofidagi yo'lovchi tashish" MCHJ Samarqand bo'limasi boshlig'i, poyezd jamoalari yo'riqchisi Bekzod Mamarasulov. — Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bunday hududlarni rivojlantirishda esa zamonaviy logistika va infratuzilma hal qiluvchi omil. Yangi temir yo'l yotqizilishi bilan Urgutda iqtisodiy o'sishni cheklab turgan to'siqlar, logistik "tromb"lar bartaraf etildi, yuk tashish tezlashdi.

Temir yo'l transporti zamonaviy transport tizimida strategik ahamiyatga ega. U yuqori tashish sig'imi, uzoq masofalarda nisbatan past tannarx hamda ekologik barqarorlik kabi ustun jihatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, aholi va sanoat yuklarini katta hajmda tashish imkoniyati temir yo'lining milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi muhim infratuzilma sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Transport tizimining boshqa turlari bilan solishtirganda, temir yo'l transporti energiya tejamlorligi va atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdori kamligi bilan atrof-muhitni muhofaza qilishda ham muhim.

O'zbekiston sharoitida temir yo'l transportining ahamiyati yanada ortadi. Chunki mamlakatning geografik joylashuvi va dengiz portlariga to'g'ri kelishi chiqish imkoniyati mavjud emasligi tashqi va ichki savdo aloqalarida temir yo'l transportining asosiy logistika vositasi sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Sanoat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi xomashyosi va tayyor tovarlarning ichki hududlar hamda xalqaro bozorlar o'rtasida harakatlanishi asosan temir yo'l infratuzilmasi orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, temir yo'l transportining samaradorligi bevosita mamlakat iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi.

Nega Urgutga poyezd qo'yilganini endi tushungingizmi? Tumanning ijtimoiy infratuzilmasi yaxshilanib, tadbirkorlik muhiti yanada faollashyapti, hududning iqtisodiy o'sishiga turki berilmoqda, — deya qo'shimcha qiladi Bekzod Mamarasulov. — Urgut Samarqand

viloyatining eng katta tumanlaridan, 600 mingga yaqin odam istiqomat qiladi. Ilgari Urgutdan Samarqandga faqat avtomobil va avtobuslar qatnardi. Yangi temir yo'l sabab yo'lovchilar uchun tezkor va xavfsiz transport xizmati yo'lga qo'yildi. Loyiha 9 oyda amalga oshirilib, Zarafshon daryosi bo'ylab umumiy 55 kilometrli temir yo'l yotqizildi. Ishlar xalqaro talab va standartlar asosida bajarildi. Loyiha doirasida 2 ta ko'prikl, 110 ta sun'iy inshoot, 13 ta yo'l kesishmasi qurildi va 58 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyasi ham yotqizildi. Jartepa qishlog'i va Urgut tumani markazida vokzal binolari barpo etildi.

Ko'pchilik yaxshi biladi: Urgutda katta sanoat zonasi bor. U yerda milliy brenddagi eng zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shu jihatdan temir yo'l yo'nalishida nafaqat yo'lovchi, balki yuk tashish sur'ati ham oshadi.



Ma'lumotlarga ko'ra, yangi temir yo'l orqali yiliga 359 ming yo'lovchi va 8.2 million tonna yuk tashish imkoniyati mavjud. Mazkur yo'nalishda ikkita shaharlararo yo'lovchi poyezdi hamda to'g'ri tashish yo'lovchi poyezdi qatnovga qo'yilgan. Bu Urgut iqtisodiyoti, sanoat, savdo va qishloq xo'jaligi uchun katta imkoniyatdir.

Ilgari Urgut aholisi Samarqand shahridagi Zarafshon ko'mir omborxonasida soatlab navbatda turar, transport xizmati xarajatlari uchun o'rtacha bir million so'mdan 1,5 million so'mgacha sarflanar edi. Temir yo'l ishga tushishi va 2 ta temir yo'l bekati barpo etilishi natijasida 48 ta vagonda 3300 tonnadan ortiq ko'mir to'g'ri tashish imkoniyatini oshirib, tumanimizga tashrifidan so'ng odamlarimizda yangi kuch-g'ayrat, jo'shqinlik paydo bo'ldi, — deydi Urgut tumani hokimining axborot xizmati rahbari Mirzohid Vahobov. — O'tgan yili 25-noyabr kuni davlatimiz rahbari Urgutga yangi temir yo'lda poyezd bilan kelib, yo'l davomida keyingi yillarda viloyatimiz, jumladan, Urgutda qilingan ishlar haqida gapirib, bu ishlar ko'lami yanayam kengayishini aytgan edi. Mamlakatimiz yetakchisining tashabbusi bilan bundan sakkiz yil oldin "Urgut" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etilishi tumanimizda tadbirkorlik, sanoatni yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. Bu yerda 1500 ga yaqin katta-kichik korxonaga faoliyat yuritilmoqda va bu zavod-fabrikalarda minglab

ikki mingdan ziyod xonadonlarga yetkazib berildi. Bundan mahalliy aholi transport xizmati xarajatlarning o'zidan 1 milliard 622 million so'm iqtisod qildi. soatlab navbatda turgan odamlarning sarsongarchiligiga chek qo'yildi.

Tumanga olib kelinadigan yuklar Jomboy, Samarqand, Zarafshon temir yo'l stansiyalarida tushirilib, avtomobillarga yuklanar, so'ng Urgutga yetkaziladi. Hozir yuklar temir yo'l orqali to'g'ridan to'g'ri Urgut tumanining o'ziga yetib boryapti. Bu orqali transport xarajati qancha tejalayotganini tadbirkorlar darrov hisoblay oladi. Qolaversa, endi qo'shni Tojikistondan yurtimizga keladigan qardoshlarimiz Jartepa vokzali orqali Urgutga yoki Samarqand shahriga yetib olishi mumkin. Bu ichki turizm rivojiga ham katta hissa qo'shadi.

Darhaqiqat, Urgutga temir yo'l tortilishi shunchaki iqtisodiy yoki infratuzilmadagi yangilanish emas, balki odamlar turmush tarzi, niyatlari ro'yobi bilan bog'liq masala. Chunki mazkur temir yo'l tuman ahli, ayniqsa, tadbirkorlarning orzusi edi. Bu haqda katta-kichik davralarda aytilar, ammo mablag' masalasi yuzaga chiqqanda reja ortga surilib, orzu orzulgichga qolaverardi.

Bugun Urgutga poyezd borganiga odamlarning o'zi ham ishonma olmayapti. Menga hamrohlik qilib kelgan Mirzohid akaning holatidan buni payqash qiyin kechmadi.

Urgut bugun nihoyatda o'zgarib, islohotlar markaziga aylanganidan xalqimiz juda xursand, kayfiyati a'lo darajada. Ayniqsa, Prezidentimizning

aholining yashash sharoitini yaxshilash va tadbirkorlarga sharoit yaratish uchun 27 milliard so'm yo'naltirildi.

Bundan tashqari, joriy yilda 42 ta maktabning qurilish va rekonstruksiya ishlari yakuniga yetkazilishi natijasida 12 ming 800 o'quvchi o'rni ochiladi. Maktablar soni 160 taga yetkaziladi. Ta'lim sifati oshirilib, oliy ma'lumotli 472 kadr ish bilan ta'minlanadi.

Ayni danda suv ta'minoti mavjud bo'lmagan 5 ta mahallada — Quyiqliq, Ipakli, Mingtepa, Taroqli va Chorchinorda homiylik mablag'lari hisobidan 5 ta suv inshooti qurilmoqda. Ta'mirlalab 5 ta oilaviy poliklinikada qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda.

Turizmini rivojlantirish harakati avj pallada. Tumanda turizm madaniyatini yuksaltirish maqsadida Chorchinor mahallasi hududida turizm hududi tashkil etish uchun 89 gektar yerda 50 million dollarlik dam olish maskanlari va dor yo'li, Qoratepa va Andak hududidagi 62 gektar maydonda kapsula uylar va ekoshaharcha tashkil etilishi natijasida 30 ta tadbirkorlik subyekti, 400 dan ortiq yangi ish o'rni ochiladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi sohasida ham qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu yil 500 gektar maydonda terassa usulida sanoatlashgan uzumzor barpo etilib, "O'zagrostar xolding" kompaniyasi bilan birgalikda 50 ta artezian qudug'i qazilib, har birining oldida 15-20 kilovattli quyosh panellari o'rnatiladi hamda suv tejoychi texnologiyalar o'rnatilib, 600 kishiga ajratib beriladi.

Shuningdek, infratuzilmasi past, kambag'allik darajasi yuqori 9 ta mahalla — Beshyov'och, Bulogboshi, G'ijduvon, Ipak yo'li, Mingtepa, Mirzabog'lon, Tinchlik, To'rtko'l va Chepda

aholining yashash sharoitini yaxshilash va tadbirkorlarga sharoit yaratish uchun 27 milliard so'm yo'naltirildi.

Bundan tashqari, "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla" sifatida rivojlantirish bo'yicha Pochvon va Yangi hayot mahallalariga katta mablag' ajratilgan. Ushbu mablag' hisobidan 3 kilometrli pyodalar yo'lga yotqizildi, 180 ta tungi bog'cha, 2 ta oilaviy shifokorlik punkti, 1 ta klinika, 8 ta sport majmuasi va vorkaut maydon,



yoshlar markazi, ekobozor hamda 30 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi, bolalar atraksionlari va ko'ngilochar maydonchalar quriladi.

Bundan tashqari, joriy yilda 42 ta maktabning qurilish va rekonstruksiya ishlari yakuniga yetkazilishi natijasida 12 ming 800 o'quvchi o'rni ochiladi. Maktablar soni 160 taga yetkaziladi. Ta'lim sifati oshirilib, oliy ma'lumotli 472 kadr ish bilan ta'minlanadi.

Ayni danda suv ta'minoti mavjud bo'lmagan 5 ta mahallada — Quyiqliq, Ipakli, Mingtepa, Taroqli va Chorchinorda homiylik mablag'lari hisobidan 5 ta suv inshooti qurilmoqda. Ta'mirlalab 5 ta oilaviy poliklinikada qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda.

Turizmini rivojlantirish harakati avj pallada. Tumanda turizm madaniyatini yuksaltirish maqsadida Chorchinor mahallasi hududida turizm hududi tashkil etish uchun 89 gektar yerda 50 million dollarlik dam olish maskanlari va dor yo'li, Qoratepa va Andak hududidagi 62 gektar maydonda kapsula uylar va ekoshaharcha tashkil etilishi natijasida 30 ta tadbirkorlik subyekti, 400 dan ortiq yangi ish o'rni ochiladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi sohasida ham qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu yil 500 gektar maydonda terassa usulida sanoatlashgan uzumzor barpo etilib, "O'zagrostar xolding" kompaniyasi bilan birgalikda 50 ta artezian qudug'i qazilib, har birining oldida 15-20 kilovattli quyosh panellari o'rnatiladi hamda suv tejoychi texnologiyalar o'rnatilib, 600 kishiga ajratib beriladi.

Shuningdek, infratuzilmasi past, kambag'allik darajasi yuqori 9 ta mahalla — Beshyov'och, Bulogboshi, G'ijduvon, Ipak yo'li, Mingtepa, Mirzabog'lon, Tinchlik, To'rtko'l va Chepda

kilometrli suv tarmog'i tortildi, 2 ta bolalar sport maydonchasi qurildi va boshqa xayrli ishlar bajariladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 ta savdo va xizmat ko'rsatish obyekti ishga tushiriladi.

Yil davomida 12 ming 300 kambag'al oila ushbu botqoqlikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 7,4 foizdan 2,2 foizga tushiriladi. Bunda 10 ta mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylandi. Ushbu raqamlar ortida, eng avvalo, bir hududda yillar davomida to'planib qolgan ijtimoiy masalalarning tizimli yechimi va hududiy muvozanatni tiklashga qaratilgan qat'iy siyosiy iroda turibdi. Bu statistika, rejalar, loyihalar mohiyatida inson kapitaliga tikilgan sarmoya orqali shakllanayotgan intellektual salohiyat, sifati tibbiy xizmat ko'rsatish orqali mustahkamlanayotgan millat genofondi mujassam.

2025-yil 18-dekabr kungi tashrifda deyarli tashlandiq holatda bo'lgan Navoiy oilaviy poliklinikasi oradan atigi 4 oy o'tib, butunlay yangi qiyofa kasb etgani yuqoridagi gaplarning eng yorqin tasdiqi.

Yangidan qurilgan binoda qo'shimcha o'quv kurslarida malaka oshirib qaytgan tibbiyot xodimlari yaxshilangan sharoitida mehnat qilmoqda, — deydi Urgut tumani 21-Navoiy oilaviy poliklinikasi mudiri Ahad Sodiqov. — Prezidentimizning topshirig'iga binoan, 1972-yilda qurilgan poliklinika butunlay qaytadan qurila boshladi. Chunki xonalar dim, qo'lansa hid anqib turar, devorlarning suvov'i ko'chib tushgan, issiqlik va elektr ta'minoti deyarli yo'q edi. Paradoxsal jihat, bu — 16 ta qishloq aholisi uchun tug'uruqni qabul qiladigan yagona yangi poliklinika. Bugun esa ko'zlarimga ishonmay o'tiribman. Sohada ishlayotganimga 30 yildan

o'shdi. Ochig'i, shaxsan o'zim bugungi o'zgarishlarni o'ttiz yil kutdim. Mana, endi o'z ustimizda ishlash uchun sharoit yetarli. Hali ko'p ishlar oldinda.

Urgutda tibbiy xizmat sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar davom ettirilmoqda. Yil yakuniga qadar 23 ta obyektini rekonstruksiya qilish va 770 mutaxassisni qayta tayyorlash rejalashtirilgan. Bu aholi uchun tibbiy xizmatlarning qulayligi va sifatini sezilarli darajada

o'shish imkonini beradi. Mazkur muassasada 13 mingdan ortiq kishiga xizmat ko'rsatiladi. Poliklinika zarur uskunalar bilan jihozlangan. U yerda 4 mutaxassis faoliyat yuritmoqda. Bu yerda sifati birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish uchun zarur sharoit yaratilgan.

To'lib-toshib gapirayotgan mudirning hayajonli so'zlarida samimiy minnatdorchlik bor. Qalb ko'ridagi, o'zi anchadan beri chiqarilgan qo'ygan top-toza mehri, shukrni o'ziga yarashgan ifoda bilan ulashardi.

Bahrin mahallasidan chiqqach, ikkilanishsiz poyezdda bizni G'avsul A'zam ziyoratgohiga taklif qilgan g'o'slik otaxon oldiga yo'l oldik. Urgut azaldan aziz avliyolar, buyuk mutafakkirlar tug'ilib o'sgan, yashab ijod qilgan muvohar zamin sifatida dunyoga dong taratgan. Uning har bir go'shasida o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi qadamlar mavjud. Ular orasida G'avsul A'zam ziyoratgohi alohida ajralib turadi.

Keyingi yillarda bu yerda ulkan bunyodkorlik ishlari bajarilib, o'ziga xos maqbara, masjid barpo etildi. Hudud ziyolilari tomonidan qishloq tarixiga oid mo'jaz muzey tashkil qilingan. Undan qishloqda yashab o'tgan ziyolilar, aholining turmush tarzi, hayotiga oid ekspozitlar joy olgan. Bugungi yoshlar bu yerda ota-bobolari qanday sharoitda yashagan, qanday ezu ishlar qilgani haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Ko'rilganlar ko'ngilga ko'chganda safar chindan nihoyasiga yetar ekan. Har qarich yerdan baraka undirayotgan, shiddat bilan o'zgarayotgan zamon bilan bilan hamnafas, zamonaviy qiyofalarda yangilanayotgan Vatani ruhining bir in'ikosi, odamlari katta ishlariga bel bog'lagan kichik makkanni ilg'ash qiyin emas. Samarqand — Urgut yo'nalishidagi poyezdda esa ushbu jarayonni kengroq mazmunda anglash mumkin.

Munosabat

ENDI BIZNESNI KENGAYTIRISHDAN QO'RQMAYMIZ



Hakim ALIMOV, yakka tartibdagi tadbirkor Mirzacho'l tumani

Prezidentimizning 2026-yil 26-maydagi "Kichik biznes subyektlarining o'sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma'muriy

Bu yilgi bahorning yakuni biz, tadbirkorlar uchun shunchaki fasllar almashinuvi emas, qalbimizga umid va shijoat olib kirgan qutlug' bir davrning boshlanishi sifatida tarixga muhurlandi. Yurtimiz fayzga to'lgan shu ajib kunlarda qabul qilingan tarixiy hujjat bizga haqiqiy quvonchli voqea bo'ldi.

shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida"gi farmoni nafaqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hujjat, balki yillar davomida bizni to'xtatib turgan sun'iy to'siqlarni parchalab tashlagan erkinlik nafasi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bir necha yildan buyon yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritaman. O'tgan yillar davomida tadbirkorlikning naqadar mas'uliyatli, gohida mashqatli, ammo o'z mehnating mevasini ko'rganda olam-olam quvonch baxsh etadigan soha ekanini yurakdan his qildim. Har bir tadbirkor kabi mening ham maqsadim ish hajmini oshirish, yangi mijozlar topish va xizmat turini kengaytirish edi. Biroq yashirishning hojati

yo'q, ayrim qonuniy cheklovlar va tartiblar sababli doim ehtiyotkorlik bilan qadam bosishga, o'z-o'zimizni jilovlashga majbur bo'laridik.

Avvallari yillik aylanma mablag'im 1 milliard so'mlik "qizil chiziq"ga yaqinlashganda, yuragimga xavotir oralardi. Chunki bu chegaradan o'tish murakkab hisob-kitoblarga boy bo'lgan QQS va boshqa og'ir soliq tizimlariga kirishni anglatardi. Bu esa tugamaydigan hisobotlar, qo'shimcha xarajatlardan eng achinarlisi, eng qimmatli boyligimiz bo'lgan vaqtning boy berilishi edi. Shu sababli ba'zida biznesni kengaytirish, yangi marralarni zabt etish bo'yicha katta rejalarimni ataylab ortga surgan, sur'atni pasaytirgan paytlarim bo'lgan.



Aynan bizni qiynab kelgan o'sha "1 milliardlik devor"ning qariyb 5 milliard so'mgacha oshirilishi kichik biznes uchun inqilobiy yangilikdirdi! Bu shunchaki raqamlar

emas, biz kabi minglab tadbirkorlarning qanot yozishi uchun berilgan kenglikdirdi. Endi ish hajmini oshirishdan, yangi mijozlarni jalb qilishdan yoki faoliyatimizni bir necha

barobar kengaytirishdan aslo qo'rqmaymiz. Aksincha, rivojlanish va faqat oldingagi intilish haqida dadil va erkin fikrlay boshlaymiz.

Farmondagi har bir band, har bir satr go'yo ko'nglimizdan o'tayotgan, yillar davomida ichimizda pishib yetilgan orzu-istaklarimizning hayotga ko'chgan aksidir.

Ayniqsa, QQS stavkasining 6 foizga tushirilishi tadbirkorlar uchun chinakam yengillik bo'ldi. Ilgari 12 foiz va u bilan bog'liq chigal, oxiri ko'rinmas hisob-kitoblar boshimizni qotirar, e'tiborimizni ishdan chalg'irtar edi. Endi esa soliq yuki sezilarli darajada kamaymoqda. Bu shunchaki imtiyoz emas, balki cho'ntagimizda, biznesimizda qoladigan sof mablag'dir. Tejalgan pullar evaziga endi ishimizni yangi bosqichga olib chiqamiz, zamonaviy jihozlar sotib olamiz, eng muhimi, mahalladoshlarimiz, qishloqdoshlarimiz uchun yangi ish o'rinlari yaratamiz. Bir oilaning boshlig'i ish bilan ta'minlansa, o'sha xonadonga baraka kiradi, bundan ortiq baxt bormi?!

Men ushbu farmonni shunchaki soliq sohasidagi navbatdagi yengillik emas, balki tadbirkorlarga yuksak ishonch va e'tirof deb qabul qildim. Davlat o'z fuqarosiga, tadbirkoriga qanchalik ishonch bildirsa, ular ham shunchalik tashabbuskor bo'lishga tayyor bo'ladi.



Sharh

16-19-iyun kunlari poytaxtimizda beshinchi bor Toshkent xalqaro investitsiya forumi o'tkaziladi. "Investitsiya barqarorligi: yangi ufqlar, yangi sherikliklar" mavzusida tashkil etiladigan ushbu nufuzli anjuman global kapital harakati va Markaziy Osiyoning yangi iqtisodiy o'zaro bog'liqligi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Forum nafaqat moliyaviy bitimlar maydoniga, balki yangi O'zbekistonning global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvini namoyon etadigan strategik platformaga aylanmoqda.



Hasan SOBIROV, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tarixning barcha bosqichlarida iqtisodiy yuksalish sarmoyaning erkin oqimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Buyuk ipak yo'li davrida Samarqand, Buxoro, Toshkent va Marv shaharlari nafaqat tovar ayiriboshlash, balki kapital markazlariga aylangan. XV asrda mintaqamizda joriy etilgan vaqt instituti orqali davlat yer va mulk himoyasini kafolatlagan. Xususiy mulkdor esa madrasa, karvonsaroy va suv inshootlari barpo etgan. Ya'ni o'sha davrdagi ijtimoiy kelishuvni bugungi davlat-xususiy sheriklikning tarixiy ildizi sifatida talqin etish mumkin.

Forum doirasida 6000 kvadrat metr maydonda ko'rgazma ham namoyish etiladi, unda neft kimyosi, mashinasozlik, qurilish materiallari, metallurgiya, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatining yetakchi loyihalari taqdim qilinadi.



Toshkent xalqaro investitsiya forumi: O'ZBEKISTON GLOBAL IQTISODIYOT XARITASIDA



Bugungi globallashuv davri xuddi shu mantiqni misli ko'rilgan miqyosda qaytarmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, hozir dunyo bo'yicha yillik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya oqimi 1,5 trillion dollardan oshadi. Markaziy Osiyo mintaqasi uzoq vaqt davomida ushbu xaritada juda kichik nuqta bo'lib kelgan. Aynan O'zbekistonning so'nggi yetti yildagi iqtisodiy ochilishi mintaqaga global kapital e'tiborini qaytardi.

2025-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyoti quyidagi natijalarga erishdi: yalpi ichki mahsulot real ko'rinishda 7,7 foiz o'sib, 147 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2021-yildan buyon dunyo bo'yicha qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkich va Yevropa hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng tez sur'atlardan biri. Asosiy kapitalga investitsiyalar 10,5 foiz ortib, 591,1 trillion so'mga yetdi. Buning 65,9 foizini to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya bir yilning o'zida 46,9 foiz ko'paydi. Bu darajadagi o'sish mintaqada misli ko'rilgan hodisadir. Xalqaro zaxiralari 77 milliard dollardan oshdi. Davlat tashqi qarzining YIMga nisbati 27,5 foiz pasaydi. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiy o'sish qarz hisobiga emas, real iqtisodiy faollik tufayli ta'minlanmoqda. Eng muhim tashqi tasdiq xalqaro reyting agentliklaridan keldi: Fitch va S&P Global birinchi marta O'zbekistonni "BB-"dan "BB" darajasiga ko'tardi. Moody's esa prognozini "ijobiy"ga o'zgartirdi. Iqtisodiy diplomatiya tilida bu global investorlar bozorimizga endi "yuqori xavf" emas, "boshqariladigan barqarorlik" sifatida qarag'onganini bildiradi.

Investitsiya muhiti sifatini baholashda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) instituti markaziy o'rin tutadi. Chunki DXSH nafaqat moliyalashtirish manbai, balki davlatning xususiy sektor bilan ishlash madaniyatini ko'rsatib beradigan ko'zga hamdir. PPP Knowledge Lab tadqiqotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda infratuzilma loyihalarining 25-40 foizi aynan ushbu mexanizm asosida amalga oshiriladi. Singapur, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniyada bu ulush ayrim yillarda 50 foizdan ham ortgan.

Yurtimizda DXSH yo'nalishi 2019-yil 10-mayda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonun bilan tizimli huquqiy asos oldi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori esa loyihalarni amalga oshirish va moliyalashtirish tartibini batafsil belgilab berdi. Hozir umumiy qiymati 2,9 milliard dollarga baholangan 265 dan ortiq DXSH loyihasi turli bosqichlarda ishlanmoqda. Energetika tarmog'ida 12 ta yirik loyiha allaqachon ishga tushgan. Ular orasida quyosh va shamol elektr stansiyalari alohida o'rin tutadi. Suv xo'jaligi sohasida 105 dan ortiq loyiha ustida ishlanmoqda. Davlat dasturiga ko'ra, 2030-yilgacha bu sohada 50 ta yirik DXSH loyihasi amalga oshirilishi belgilangan.

Bugun DXSH modelining muvaffaqiyatli amaliy namunalarini yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Toshkent — Samarqand pulli avtomobil yo'li mintaqada birinchi yirik miqyosli transport infratuzilmasi sifatida tarixga kirmoqda. Toshkent shahri issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiyalash loyihasi kommunal sektorga xususiy operator jalb etilgan birinchi yirik tajriba bo'ldi. Sog'liqni saqlash sohasidagi gemodializ xizmatlari ko'rsatish bo'yicha DXSH loyihasi 80 mingdan ortiq bemorga kafolatlangan, jahon standartlariga mos xizmat yetkazib, ushbu

modelning ijtimoiy samarasini isbotladi.

DXSH institutining O'zbekiston uchun strategik ahamiyati uch jihatda namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, davlat byudjeti zimmasiga ortiqcha yuk tushmaydi — kapital qo'yilmalar xususiy investorlar tomonidan ta'minlanadi. Ikkinchidan, xususiy sektorning samaradorlik va boshqaruv tajribasi davlat xizmatlariga olib kiriladi. Bu esa kommunal va ijtimoiy xizmatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Uchinchidan, loyihalardagi xavflar davlat va xususiy sherik o'rtasida adolatli taqsimlanadi. Bu xalqaro investorlar uchun eng muhim signal. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, aynan DXSH asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya va suv xo'jaligi sohasiga 14 milliard dollarga teng investitsiya yo'naltirilishi rejalashtirilgan.

Investitsiya muhiti uchun raqamlar va sarmoya hajmi yetarli emas, kapital o'zini xavfsiz his etadigan huquqiy ekotizim zarur. Mana shu yo'nalishda 2026-yil mart oyida Prezidentimizning tegishli farmoni bilan tashkil etilgan Toshkent xalqaro moliya markazi haqiqiy strategik muhim qadam bo'ldi. Markaz maxsus huquqiy rejim asosida ishlaydi hamda umumiy huquq tamoyillariga tayanadi. Bu Dubay va Ostona markazlari kabi jahon investorlariga tanish tuzilmadir. Markaz huzurida mustaqil moliyaviy regulator va alohida arbitraj markazi faoliyat yuritadi. Ishitirokchilarga esa 2076-yilgacha soliq imtiyozlari beriladi. 50 yillik bu uzoq muddatli kafolat investorlarning strategik rejalashtirishi



uchun kuchli signal vazifasini bajaradi. Bunga qo'shimcha ravishda birinchi marta alternativ investitsiya fondlari uchun huquqiy asos qabul qilindi. Venchur fondlar soni allaqachon 22 taga yetdi, startap ekotizimining qiymati 4,3 milliard dollar deb baholanmoqda. Bu raqamlar global kapitalga O'zbekiston endi nafaqat resurs bozori, balki innovatsion iqtisodiyot maydoni ham ekanini ko'rsatadi.



Toshkent xalqaro investitsiya forumi 2022-yildan beri har yili ko'lamin kengaytirib bormoqda. To'rtinchi forumda 97 davlatdan 8000 dan ortiq mehmon ishtirok etgan va 30,5 milliard dollarlik shartnomalar imzolangan edi. Bu istalgan mintaqaviy iqtisodiyot uchun jiddiy ko'rsatkichdir.

Forum doirasida 6000 kvadrat metr maydonda ko'rgazma ham namoyish etiladi, unda neft kimyosi, mashinasozlik, qurilish materiallari, metallurgiya, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatining yetakchi loyihalari taqdim qilinadi.

Forumning ahamiyatini faqat imzolangan shartnomalar miqdori bilan o'lchash to'g'ri emas. Forum mamlakatni global kapital hamjamiyatining yillik taqvimida barqaror o'rin egallashga olib chiqadi: bir marotaba kelish — diplomatiya, har yili qaytib kelish — strategiya. Shu bilan birga, forum ichki islohotlar uchun samarali bosim mexanizmi vazifasini bajaradi: yiliga bir marta global ekspertlar oldida natija ko'rsatish institutsional intizomni saqlab turadigan muhim omildir.

Investitsiya muhiti darhol bunyod etilmaydigan, biroq bir lahzada barbot bo'lishi mumkin bo'lgan nozik ekotizimdir. So'nggi yillarda O'zbekiston bu ekotizimni mustahkam poydevor ustiga qurib chiqdi: huquqiy bazani yangiladi, davlat-xususiy sheriklik institutini rivojlantirdi. Toshkent xalqaro moliya markazini barpo etdi, kapital bozoriga yo'l ochdi, xalqaro reytinglarda yuqoriga ko'tarildi. Toshkent xalqaro investitsiya forumi esa shu poydevor ustida ko'tarilayotgan binoni global jamoatchilik nigohida sinab ko'rish imkonini beradigan muhim mezondir.

Mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi har bir muvaffaqiyatli investitsiya tadbiri yangi O'zbekistonning muvozanatli, ochiq, barqaror va ishonchli hamkor sifatida e'tirof etilishini yanada mustahkamlamoqda. "Investitsiya barqarorligi: yangi ufqlar, yangi sheriklik" mavzusida o'tkaziladigan beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi nafaqat to'rt kunlik anjuman, balki mamlakatimizning kelgusi besh yillik iqtisodiy strategiyasini belgilab beradigan burilish nuqtasiga aylanishi shubhasizdir.

Yurtning obod go'shalari

Konimex Navoiy viloyatining shimolida joylashgan, o'ziga xos tabiiy sharoiti, boy tarixi va iqtisodiy imkoniyatlari bilan ajralib turadigan hududlardan. Tuman cho'l hududida joylashgan bo'lsa-da, katta imkoniyatlarga ega, eng muhimi, aholisi mehnatkash. Sanoati, chorvachiligi, o'ziga xos tabiati va strategik joylashuvi hududni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin hozirlab keladi.



Joriy yil 24-aprel kuni Prezidentimiz raisligida hudud va tarmoqlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha birinchi chorak yakunlari tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar yuzasidan o'tgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasida tumanda muayyan ishlar qilinmoqda.

Ushbu yig'ilishda 2026-yilning o'tgan uch oyida sohalarida bajarilgan ishlar tahlil qilib berildi. Shu asosda kelgusidagi vazifalarimizni belgilab, sohalaridagi sa'y-harakatlarimizni yanada jadallashtirishni maqsad qildik. Jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat, investitsiya, bandlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirildi. Bundan tashqari, tumanimizda joriy yilda sanoat yo'nalishida 8 ta yangi loyiha ishga tushirilib, ishlab chiqarish o'tgan yildagiga nisbatan 10 foiz oshadi. Xorijiy investitsiyani jalb qilish joriy yilning birinchi choragida 20 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, yil oxirigacha bu ko'rsatkichni 150 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan, — deydi Konimex tumani hokimi Ruslan Ro'ziyev. — Tumanda chorvachilikdan tashqari, turizm sohasi ham asosiy drayverlardan biri sifatida rivojlantirilayapti. Bu yerda mazkur yo'nalish bo'yicha imkoniyatlar keng. Xususan, cho'l hududlarda sayohatlarni ko'proq jalb etadigan o'tovlar ko'paytirilayapti

Shu yilning o'tgan uch oyida hududga 4500 xorijlik sayyoh kelgan bo'lsa, yil oxirigacha bu ko'rsatkich 24 mingdan oshishi kutilmoqda. Hozir tumandagi 2 gektar maydonda 30 ta yangi o'tov tiklanib, atrofida dam olish maskanlari barpo etilyapti. Xuddi shunday yana 5 ta loyihamiz bor. Joriy yilda xorijlik sayyohlar uchun umumiy qiymati 25 milliard so'mlik 3 ta o'tovli lager va 1 ta tibbiy turizm loyihasi amalga oshirildi. Bu esa tumanimizga keladigan mahalliy va chet ellik turistlar sonini bugungi 79 ming 300 dan 124 mingga yetkazish imkonini beradi.

Cho'l sharoitiga qaramay, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va yana o'ndan ortiq millat vakillari totuv va inoq hayot kechirib, tuman taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotir. Albatta, bu yerdagi keng ko'lami yangilanishlar juda muhim. Infratuzilma yangilandi, iqtisodiy salohiyat kengaydi, aholining turmush darajasi yaxshilandi. Natijada bugungi Konimex bir asrlk

KONIMEX BIR ASRDAN SO'NG QANDAY O'ZGARMOQDA?

taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yan, zamonaviy ko'rinishga ega hududga aylandi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohaslaridagi o'sish sur'ati ham buni tasdiqlab turibdi.

Hozir tumanimizda sanoat yo'nalishida hududiy investitsiya dasturi asosida 227,3 milliard so'mlik loyihalar amalga oshirilmoqda, — deydi Konimex tumani hokimining birinchi o'rinbosari Eldor Hazratqulov. — Qishloq xo'jaligi yo'nalishida aholining jami 361 gektar tomorqasida va ijaraga berilgan 170 gektar maydonda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilishi rejalashtirilgan. Jumladan, Birlik, Sohil bo'yi, Yuksalish, Zafarobod, Sho'rtepa mahallalarida yo'lbo'yi loyihalari amalga oshirilib, 72 ta savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari faoliyatini yo'lga qo'yildi. A-379 avtomagistralining 125 kilometr qismida qiymati 35 milliard so'mlik xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etiladi. Barcha yo'nalishda belgilangan ishlar bajarilishi natijasida 338 ta tadbirkorlik subyekti tashkil etilishi va 2625 ta yangi ish o'rni ochilishi ko'zda tutilgan.

Albatta, tadbirkorlik rivojlangan joyda yangi ish o'rinlari ochiladi, aholining yashash sharoiti yaxshilanadi. Tumanda bu borada ham ko'plab loyihalar amaliyotga tatbiq etilyapti. Jumladan, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatining negizida tashkil etilgan laminatlangan poliipropilen qop ishlab chiqarish korxonasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozir sifati qoplar jamiyatning ichki ehtiyoji, korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qadoqlash uchun yetkazib berilyapti.

Sexdagi ishlab chiqarish jarayoni bir necha bosqichdan iborat, — deydi tadbirkor Azamat Rasulov. — Xodimlar mas'uliyati va tajribasi zamon talabiga javob beradigan mahsulotni tayyorlashga xizmat qilmoqda. Zamonaviy Xitoy uskunalari bilan ta'minlangan majmua soha vakillari uchun qulay mehnat sharoiti yaratilgan.



Korxonamizda 110 ta ish o'rni ochilgan. Asosan, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati buyurtmasini bajaramiz.

Qizilqum bag'rida joylashgan Konimex tumani azaldan chorvachilikka ixtisoslashgan va bu sohada ham salmoqli yutuqlar qayd etilmoqda. Besh yilda chorva soni 620 mingtaga yetdi, ya'ni 115 foiz oshdi. Ayniqsa, xorijdan olib kelingan zotli chorva ilmiy yondashuv asosida parvarislanib, ko'paytirilmoqda.

Tumanimizda hozir 600 mingdan ortiq mayda shoxli chorva mavjud, — deydi Konimex tumani hokimligi bosh mutaxassisi Sanjar Nuriyev. — Kelgusida chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha 8 ta loyihamiz tayyor. Endi xorijiy davlatlar bilan ham hamkorlikni yo'lga qo'yyapmiz. Jumladan, Pokistonning chorvachilik sohasidagi qator nomdor korxonalar va kompaniyalari bilan hamkorlikda go'sht mahsulotlari tayyorlash va chirm-poyabzal ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni ishga tushirish arafasidamiz. Tumanimizda ko'plab sohalar qatori baliqchilik ham rivojlanmoqda. Baliqchilik xo'jaliklari ko'payib, shifobaxsh mahsulot yetishtirish hajmi oshmoqda. Masalan, Qizilqum sahrasi chegarasida joylashgan Sho'rko'l mahalliy aholi va sayyohlar uchun baliq ovlash hamda tabiat qo'nyida hardiq chiqarish uchun qulay maskan. Ayni vaqtda ko'lning salohiyatini to'laonli ishga solish maqsadida tadbirkorlar yirik loyihalarni amalga oshiryapti. Xususan, "Navoiy tillo baliq" MCHJ ekoturizm va baliqchilik yo'nalishida 1,5 milliard so'mlik loyihani amalga oshirmoqda.

Umuman olganda, tumanda bugun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga yondashuv mullatqo o'zgarib, ustuvor yo'nalishga aylanib borayotir. Sho'rtepa mahallasida joylashgan issiqxonada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ichki bozordan tashqari eksport ham qilinmoqda.

Kredit mablag'lari asosida 2,5 gektar maydonda issiqxona tashkil etdik, — deydi tadbirkor Xolisxon Qudratova. — Bugun ishlabarmonlarga juda katta imkoniyat berilgan. Mahsulotlarimizni eksport qilish uchun barcha qulaylik bor va qo'shimcha qiymat solig'idan ham ozodmiz. Bu imkoniyatlar tufayli ishlimiz barqaror rivojlanmoqda. 100 ga yaqin ish o'rni ochganmiz. Bir yilda issiqxonadan 250 tonnagacha hosil olamiz. Hozir 4,5 gektar maydonda uzumzor ham tashkil etganmiz. Toklarimiz ikki yilda hosilga kiradi.

Xudoyberganov. — Natijada 1200 kishining bandligi ta'minlanadi. Ishsiz 1000 fuqaro doimiy ishga joylashtiriladi. Shuningdek, 338 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 2625 ta yangi ish o'rni ochiladi.

Ayni vaqtda "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman" maqomi berilgan Konimexda bunyodkorlik ishlari ham jadal davom ettirilyapti. Tumandagi A-379 avtomagistrali bo'yida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda. Drayver loyiha doirasida yo'l bo'yi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, tuman stelasini yangi va zamonaviy qiyofada yangilash, hududni yanada jozibador maskanga aylantirish hamda iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi infratuzilmani kengaytirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, zamonaviy savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, dam olish maskanlari hamda selfi hududlarini tashkil etish orqali aholi va mehmonlar uchun yanada qulay muhit yaratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, mahallalarda ham keng ko'lami obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda.

Joriy yilda tumandagi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun 22,5 milliard so'm yo'naltirilishi belgilangan, — deydi Konimex tumani hokimligi axborot xizmati rahbari Azamat Ne'matov. — Bu orqali tumandagi 3,5 kilometr ichki yo'l yotqizildi, 40 kilometr ichimlik suv va 2,5 kilometr elektr tarmoqlari tortildi va 3 ta maktab, 2 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, tibbiyot va sport obyektlari qurilishi hamda ta'mirlanishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, 4 ta mahallani dehqonchilik, 5 tasini chorvachilik, 3 tasini savdo va xizmat ko'rsatish, 1 tasini sanoatga ixtisoslashtirish bo'yicha ishlab davom ettirilmoqda. Bu jarayonda 520 ta mikroloyiha amalga oshirildi va 130 ta xonadonga loyiha paketlari taqdim etildi.

Bugun Konimex tumanida Yangi O'zbekiston qiyofasini yaratish uchun zarur chora-tadbirlar belgilanib, hayotga tatbiq etilyapti. Buning samarasi esa aholi turmushida namoyon bo'lmoqda. Kelgusida hayotga tatbiq etiladigan istiqbolli loyihalar ko'p. Ularni ro'yubga chiqarish uchun tumanda ishonch, salohiyat va imkoniyatlar yetarli.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar

Yurtimizda inson qadri, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralayotgani sohadagi keng ko'lami islohotlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Madaniyat va san'at tizimini tubdan rivojlantirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, milliy madaniy merosni asrash, targ'ib qilish hamda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan mustahkam huquqiy asos yaratildi.



MADANIYAT VA SAN'AT

taraqqiyotni harakatlantiruvchi, millatni birlashtiruvchi ma'naviy kuch



Nodirbek SAYFULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor

Jumladan, davlatimiz rahbarining joriy yil 28-maydagi "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi hamda "Mamlakatimizda madaniyat, san'at va adabiyot sohalari rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan bir guruh marhum ijodkorlarni mukofotlash to'g'risida"gi farmonlari madaniyat va san'at ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va e'tirofning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. Prezidentimizning 1-iyun kuni soha vakillari bilan o'tkazgan ochiq va samimiy muloqoti ushbu e'tiborning mantiqiy davomidir.

Mazkur tarixiy uchrashuvda davlatimiz rahbari madaniyat va san'at sohasining iqtisodidagi taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi, tizimni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan amaliy vazifalarni belgilab berdi.

Prezidentimiz "Davlatni iqtisod ko'taradi, qonun boshqaradi, armiya himoya qiladi. Lekin qaysi mamlakat adabiyot va madaniyatga e'tibor bersa, kelajagi mustahkam bo'ladi. Qaysi jamiyat ijod va san'atni qadrlasa, o'sha xalqning ma'naviy immuniteti kuchli bo'ladi", deya ta'kidladi.

Shuningdek, "Bitta yaxshi asar, ta'sirchan qo'shiq millatning ruhini ko'taradi, birgina spektakl jamiyatning tafakkurini uyg'otadi, kinodagi bir obraz butun avlodning qarashini o'zgartiradi" degan fikrlari bilan san'atning jamiyatdagi beqiyos kuchini yana bir bor ifoda etdi.

Darhaqiqat, madaniyat va san'at jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan eng muhim omillardan. Uchrashuv mazmun-mohiyati haqida fikr bildirar ekan, mamlakatimiz yetakchisi uning maqsadi sohadagi muammolarga yechim topish hamda adabiyot, madaniyat, san'at va kreativ iqtisodiyotda yangi muhit yaratadigan katta tashabbuslarni boshlab berishdan iborat ekanini ta'kidladi. Bu esa uchrashuvning nafaqat mavjud muammolarni muhokama qilish, balki madaniyat va san'at sohalari yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik muloqot ekanini anglatadi.

Avvalo, teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, maqom, akademik va milliy cholg'u san'ati, tasviriy hamda amaliy san'at kabi 21 ta yo'nalish bo'yicha ijodiy birlashmalar tashkil etilishi belgilandi. Mazkur tashabbus san'at sohasini tizimli rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra sport sohasidagi federatsiyalar faoliyatiga o'xshash tarzda har bir yo'nalishning taraqqiyoti, iste'dodlilarni saralash va qo'llab-quvvatlash, ustoz-shogird an'alarini mustahkamlash hamda professional muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, ushbu birlashmalar tajribali ijodkorlar va yosh iste'dod egalarini yagona maqsad atrofida birlashtirib, milliy san'at maktablarining uzviy davomiyligini ta'minlaydi. Natijada har bir yo'nalishda ijodiy raqobat, professional mahorat va xalqaro maydondagi nufuzni oshirish uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Har yili o'tkazilishi belgilangan milliy ijodkorlar qurultoyi esa sohaning yirik hisobot va e'tirof platformasiga aylanadi. Eng yaxshi ijodkorlarga qalam haqi, tibbiy va ijtimoiy imtiyozlar beriladi.

Yosh iste'dodlilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida respublika tanlovlari g'oliblariga 100 million so'm, xalqaro tanlovlar sovrindorlariga 300 million so'mgacha mukofot berilishi, ustozlarga esa 100 foizgacha ustama belgilanishi tizimda yangi sifat bosqichini boshlab beradi.

Shuningdek, har yili 100 nafar yosh ijodkorga xorijdagi oliy ta'lim muassasalarida davlat hisobidan tahsil olish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa milliy san'atimizni xalqaro darajaga olib chiqadigan yangi avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

"Ijodga investitsiya" jamg'armasi tashkil etilib, unga yiliga 200 milliard so'm ajratilishi kreativ iqtisodiyot rivojida tarixiy qadam bo'ldi. Bugun madaniyat va san'at nafaqat ma'naviy, balki iqtisodiy taraqqiyotning ham muhim omiliga aylanoqda. Adabiyot sohasida yiliga kamida 50 ta sara asarga davlat buyurtmasi berilishi, eng yaxshi 10 ta asarning xorijiy tillarga tarjima qilinishi milliy adabiyotimiz nufuzini oshirishda qo'l keladi. Milliy kitobxonlik harakati doirasida kutubxonalar, kitob do'konlari va buk-kafelarning kengaytirilishi tufayli esa yoshlar ma'naviyati yuksaladi. Ashula va raqs ansambllari xodimlarining ish haqi 2 baravar oshirilishi, raqs ustalari uchun pensiya stajining 20 yildan 15 yilga tushirilishi, Yangi Toshkentda Raqs saroyi qurilishi milliy sahna san'ati rivojida muhim bosqich bo'ladi. Kompozitor va bastakorlar uchun har yili kamida 20 ta yangi asar yaratish bo'yicha davlat buyurtmasi berilishi milliy musiqa rivojini yangi bosqichga olib chiqishda juda muhim.

Eng ustuvor jihatlardan yana biri san'atning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi bo'ldi. Endi aeroport, metro, vokzal, park va jamoat joylarida milliy kuy-quo'shiqlar yingrab turadi.



"Milliy ruhini uyg'otadigan san'at kerak, xalqni ilhomlantiradigan adabiyot kerak, yoshlarga faxr va iftixor beradigan kino kerak, qablarni junbushga keltiradigan musiqa kerak, odamning o'zini anglashga undaydigan teatr kerak", dedi Prezidentimiz. Ushbu muhoazalar bugun madaniyat va san'at oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — milliy ruh va milliy o'zlikni san'at vositasida teran ifodalash masalasiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ta'kidlanganidek, asarning muvaffaqiyati faqat uning shakli, texnik imkoniyatlari yoki tashqi jozibas bilan emas, balki unda xalqning tarixi, qadriyatlari, orzu-intilishlari va ruhiyat qanchalik aks etgani bilan belgilanadi. Shu ma'noda, san'at asarlari tomoshabin, tinglovchi yoki kitobxon qalbiga chuqur kirib boradigan, uni o'ylantiradigan va ilhomlantiradigan kuchga ega bo'lishi lozim.

Prezidentimizning sahna asarlari, qo'shiqlar, filmlar va boshqa ijod mahsulotlari misolida keltirgan fikrlari san'atning mazmun jihatiga e'tiborni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki millatning ma'naviy qiyofasi, tarixiy xotirasi hamda bugungi taraqqiyot yo'li, eng avvalo, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Xalqning dardi, quvonchi, g'ururi va xarakteri badiiy asarlarda yorqin namoyon bo'lgandagina ular keng jamoatchilik qalbidan joy oladi hamda milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, milliy ruhini uyg'otadigan san'at, xalqni ilhomlantiradigan adabiyot, yoshlarda faxr va iftixor tuyg'usini kuchaytiradigan kino, qablarni junbushga keltiradigan musiqa hamda insonni o'zligini anglashga chorlaydigan teatr yaratish vazifasi ilgari surildi. Bu ijodkorlar mas'uliyatini oshirib, madaniyat va san'atning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni naqadar muhim ekanini ham yaqqol namoyon etdi.

Uchrashuvda ilgari surilgan "Men O'zbekiston farzandiman!" g'oyasi atrofida

yangi iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlar institut bitiruvchilari uchun mehnat bozorini yanada kengaytirish, ularning kasbiy faoliyatini boshlash va o'z iste'dodini namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xususiy teatrlar va teatr-studiyalarining qo'llab-quvvatlanishi natijasida yangi ish o'rinlari ochilib, yosh mutaxassislarining bandligini ta'minlash imkoniyati sezilarli darajada ortadi. Bu esa ta'lim, ilm-fan va amaliy ijodiy faoliyat o'tasidagi uzviy integratsiyani mustahkamlab, teatr san'atining barqaror rivojlanishida juda muhim.

Kino san'atini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar ham mamlakatimiz kinematografiyasi tarixida yangi bosqichni boshlab bermoqda. Xususan, "O'zbekfilm" kinostudiyasiga milliy maqom berilib, uni mahalliy va xalqaro kinoindustriyaga xizmat ko'rsatadigan markaziy kinokonsernga aylantirish bo'yicha belgilangan vazifalar milliy kino sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy filmlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, global kino platformalari bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar o'zbek kino san'atining dunyo miqyosidagi nufuzini mustahkamlashda katta o'rin tutadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida kino nafaqat san'at turi, balki mamlakatning madaniy qiyofasi, tarixiy xotirasi va milliy manfaatlarini xalqaro maydonda targ'ib qiluvchi eng ta'sirchan vositalardan. Shu ma'noda, kino sohasiga qaratilayotgan e'tibor yangi avlod kinoijodkorlari tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va milliy kino mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Endi madaniyat va san'at sohalari uchun kadr tayyorlash o'ziga xos ijodiy xususiyatga asoslanib tashkil etilishi kerak. Shu bois, yangi o'quv yilidan ixtisoslashgan maktablarga o'quvchilarni musiqa yo'nalishida 5-sinfdan, raqs, teatr, san'at bo'yicha 9-sinfdan qabul qilinadi. Mazkur qaror yosh iste'dod egalarini erta aniqlash, ularning qobiliyatini maqsadli rivojlantirish hamda professional san'at ta'limiga puxta tayyorlash imkonini beradi. Ayniqsa, ushbu tizim O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti kabi sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari uchun ham muhim.

Chunki ixtisoslashtirilgan maktablarda chuqurlashtirilgan dasturlar asosida tahsil olib bitiruvchilar kelgusida institutning asosiy abituriyentlari va talabalari safini to'ldiradi. Bu esa oliy ta'lim bosqichiga san'at va madaniyatning nazariy hamda amaliy asoslarini puxta egallagan, ijodiy dunyoqarashi shakllangan, kasbga ongli ravishda yo'naltirilgan yoshlar kirib kelishini ta'minlaydi. Ta'lim janjirida "ixtisoslashtirilgan maktab — oliy ta'lim — professional faoliyat" tizimi yanada mustahkamlanadi. Bu esa institutda kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqib, teatr, kino, musiqa, raqs va boshqa ijodiy

YAQIN YILLARDAN KICHKINA BIR HIKOYA



Ko'ngildagi bitiklar

Yaqinda Prezidentimizning madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvini his-hayajon bilan kuzatdik. Bildirilgan tashabbuslar, yaratilayotgan imkoniyatlardan kim shodlanmadi, deysiz. Ochig'ini, ijod sohasi ichra yurgan ijodkor sifatida bu yangiliklar men uchun yillar davomida yig'ilib qolgan katta-kichik ko'plab muammolarning yaxlit yechimi bo'lib tuyuldi. Nima uchunligiga bir misol.



O'zbekiston Milliy universitetining 1-kurs talabasi. Kuz oylari. Poytaxt ko'chalarini endi-endi o'rganayotgan, metroda adashib, avtobuslarning raqamlarida chalkashib yurgan paytim. To'rtta kursdosh kelishib, bir mehmonxonaga ijaraga joylashganimiz, arzonroq narxga. Sababi, kuz boshida poytaxtda darrov ijara uyi topish qiyin bo'ladi. Kunlarning birida Qashqadaryoda ijodiy davralarda birga she'r aytishib yurgan do'stim qo'ng'iroq qildi. Toshkentga kelib, vaqtincha qo'nalga kerak. Ko'rishdik. Puli yo'likiraga zo'rg'a yetgani sezilib turibdi. Mehmonxonaga olib bordim. 4 kishilik xonada beshinchi bo'lib joylashdi. Ikki hafta tinmay ish izladi. O'zi istagan ish topilavermadi, topilganing esa maoshi ozlik qildi. Sababi, o'zidan orttirib uyiga ham yuborishi kerak. Xullas, yaxshi niyatlar bilan kelganiga qaramay, sharoit tufayli uyga qaytishga majbur bo'ldi. Ketarkan, shu yerda o'rinni topib, ijodiy muhit ichida

yashamoqchi edim, nachora, nasib qilmagan ekan-da, dedi. Ketdi. Hayot davom etaverdi. Oradan uch oy o'tgani. Yana o'sha do'stim telefon qildi. Toshkentdagi bir tahiriya'dan ish topgan, yaqinda kelmoqchi ekan. Keldi, yana men yashayotgan kvartiraga joylashdi. Ishni boshladi. Oyluk 3,5 million so'm atrof. Kunlarning birida bolalarini sog'inayotganini, ularni ham ko'chirib olib kelishini, bunday yashay olmasligini aytdi. Ikkovlashib ijaraga xonadon izladik. 3 million so'mlarga amallab yosh oilaga topsa bo'larkan. Topdik. Qo'shimcha ish qilib amallayman dedi. Oilasini ko'chirib keldi. Lekin qo'shimcha ish ham izlaganda topilaversa-da. Topilmadi. Bir oy yashadi-yu, yana qaytish haqida maoshi ozlik qildi. Sababi, o'zidan orttirib uyiga ham yuborishi kerak. Xullas, yaxshi niyatlar bilan kelganiga qaramay, sharoit tufayli uyga qaytishga majbur bo'ldi. Ketarkan, shu yerda o'rinni topib, ijodiy muhit ichida


Xullas, do'stimni o'sha paytda poytaxt, majoziy ma'noda aytganda, "sig'dirdim". Bugun u viloyatda tadbirkorlik qilayпти. Sharoitini ham ancha yaxshilab olgan. Lekin baribir qalbidan san'atga, she'riyatga muhabbati so'nmagan har gaplashganimizda sezilib turadi. Davlatimiz rahbari 1-iyun kuni madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvda ijodiy tashkilotlar, madaniyat va san'at muassasalariga boshqa hududdan kelib ishlayotgan soha vakillariga uy-joy ijarasi uchun Toshkent shahrida oyiga 2,5 million so'mgacha, viloyatlarda 1 million 600 ming so'mgacha xarajatini qoplab berish yo'lga qo'yilishini e'lon qildi. Bu xabarini o'qib, darrov o'sha do'stim yodimga tushdi, qo'ng'iroq qildim. Xabarni o'qib berdim, o'sha paytlarni kulib esladik. "Juda yaxshi ish bo'libdi. Hozir bir harakat qilsam, Toshkentdan uy olishga

ham imkoniyat yetadi. Lekin shu imkoniyat o'sha yillarda bo'lganda, kim bilsin, men ham katta shoir bo'lib yurgan bo'larmidim bugun... Taqdir ekan, do'stim", deydi. O'ylanib qoldim. Prezidentimiz uchrashuvda madaniyat va san'at sohasi vakillariga yaratilayotgan imkoniyatlarni birma-bir aytdi. Aksariyatimiz uni odatdagi xabardek o'qidik. Lekin bu yangiliklarni bittalab ajratib chiqsak, har birining tubida qanchadan qancha taqdirlar hikoyasi, armonlar, iztiroblar bor. Bu yangiliklarni eshitganda qanchadan qancha ijodkorlarning ko'z o'ngidan o'timishi o'tdi, qani edim shu imkoniyatlar o'sha paytlar bo'lganda edi, dedi. Men esa ularning bittaginasini hikoya qilib berdim, xolos. **Jonibek ERKIN,** jurnalist

Mutolaadan so'ng

CHO'QQI SARI DADIL QADAM

Olamshumul yutuqlarga erishilayotgan XXI asrda tadqiqotlar shu paytga qadar sirli bo'lib kelgan ko'plab jumboqlarga javob topa boshladi. Hatto amaliy natijalar xayoldan ham o'zib ketdi. Qo'l yetgudek joyga qarang, qancha mo'jiza — qo'l telefoni, kompyuter... Ichi to'la jumboq. Ammo ana shunday ham yopiq, ham shaffof dunyoda Sohibqiron Amir Temur haqidagi sinoatlar hamon to'la o'rganilmagani-da bor gap.



Buyuk haqiqatlarni to'la kashf qilish uchun turli nuqtayi nazarlardan yondashish zarur. Natijada haqiqatning to'la namoyon bo'lishida yangi so'qmoq ochadi. Keyingi yillarda bu mavzuda ko'p jildli epopeyalar, alohida romanlar, tarixiy-xronikal asarlar, she'riy manzuma va dostonlar yozilganini e'tirof etgan holda monografiyani izlanishlarning yangi qirrasini, qolaversa, olg'a bosilgan qadam deb baholash mumkin. Bunga asarning mazmuni, voqealarning o'ziga xos tadqiqi va talqini kafolat beradi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, hozirgacha Sohibqiron hodisasini kashf etishda yumushlar to'rt amallarda, asosan, yillar va voqealar doirasida, ya'ni butun sonlar bilan bajarilgan bosqichida bo'lsa, endi ko'p ta'kidlangan yirik yo'nalishlarning kasr va maxrajlarini, hammabop xulosalarning botinidagi ichki unsurlarni kashf etish darajasidagi tadqiqot amalga oshirildi. Albatta, mavzuning endi algebra va avgoritmlariga ham navbat yetadi.

O'z paytida 50 zamondoshining "giyosiy hasbi holi"ni yozib qoldirgan Plutarx Aleksandr Makedonskiy tarjimai holi inshosidan oldin o'zining vazifasini bunday bayon etgan ekan: "Biz tarix yozmaymiz, balki odamlarning hayoti mazmunini insho etamiz. Har qanday ulug' voqealarga e'zgulik yoki yovuzlik birdan ko'zga tashlanavermaydi. Ammo arzimagan bir qiliq, shunchaki aytilgan gap yoki yo'lida qilingan hazil jangdagi o'n minglab qurbonlar, ulkan armiya yoki shaharlarning qamal qilinishi sharhidan ko'ra inson tabiatini yorqin namoyon etadi. Shuning uchun ba'zan ijodkorlar ularning xarakterini ochib beradigan yuzidagi o'xshashlik yoki qo'l harakatlarini tasvirlar ekan, tanasining boshqa qismi bilan kam qiziqadi. Bil'aks, bizga buyuk ishlar va janglarning boshqa tafsilotlaridan ko'ra shaxsning butun hayotini tasvirlash asnosida qalb kechinmalarini ifodalash zarurati bo'lganda shu kichik unsurlar orqali maqsadga yetishga ko'proq ehtiyoj seziladi".



Zero, voqealik markazida inson turar ekan, hamma harakatlar uning irodasi qutqusi (qo'zg'alishi) bilan cheklangan, pirovard manzarani qabul qilish va kechinmalarini his etishda alohida biologik unsur sifatida ODAMNING kimligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

"Bashariyat bugun nimaiki orttirgan bo'lsa, bari inson g'oyasining mahsulidir. Inson tafakkurida vujudga kelgan oliy qadriyat butun odamzodni hurriyatga yetaklaydi, millionlab ushalmagan orzu-umidlarga malham beradi, toptalgan ruhiyat qanotlariga parvoz bag'ishlaydi. Inson tafakkuri — ilohiy mo'jiza!" deb yozadi professor To'lqin Alimardonov o'z asarida hamda botini kechinmalarini bunday yakunlaydi: "Bir inson ruhiyatida shunchalik qudrat!". Qolaversa, muallif hayratining boisi bor: "Bobomiz Amir Temur shaxsiyatida bashariyatga daxldor bo'lgan ana shunday mo'jizakor xalokor qudratni ko'ramiz". Olim kitob davomida iqtidorining kuchini

o'zi kashf etgan ana shu haqiqatni mufassal sharhlagan qaratadi va bunda o'ziga xos yo'l tutadi. Ochiq'i, sa'y-harakatning muvaffaqiyatli kechganini qayd etish insofdan bo'ladi. Zotan, asarda Sohibqiron dunyoni larzaga solgan fo'hi yoki jahongir sifatida emas, inson o'laroq bir mo'jiza sifatida namoyon bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temurning davlatchilikdagi muvaffaqiyatlari jahonda tan olingani ayni haqiqat. Insoniyatni lol qoldirgan sinoatlardan biri va eng muhimi — shu zamin farzandining o'ttiz besh yil ichida davlatni o'zining sa'y-harakati bilan birlashtirib, yarim vayrona, nochor o'lkani gullagan mamlakatga aylantirishi, dunyoning uchdan biriga hukmini o'tkazishi, yana insoniyat tamadduniga yuz yillarni bo'ylagan meros qoldirib, eng mukammal sivilizatsiya namunasi yaratishi bugun ham namuna olishga arziydigan meros edi. Buni chuqur anglagan olim o'z tadqiqotida bugungi mezonlar bilan

voqealikka donishmandona nazar tashlaydi va yutuqlar zamiridagi omillarni kashf etishga intiladi. Monografiyada voqea ko'laminu gavdalantirish uchun raqamlar, janglarda qurbon bo'lganlar soni, vayron bo'lgan shaharlar miqyosi, shuningdek, bunyod etilgan ulkan imoratlarining salobati, hatto yillar yoki davrlar haqida gap ketmaydi, balki tik o'sgan daraxtning poyama-poya yuksalib borishida ro'y bergan voqealar dunyo hayoti kesimida tahlil qilinadi.

Muhokama uchun savollar ham qo'yiladi: Amir Temur fenomeni tasodifi yoki qonuniyat edimi? Mabodo g'alabalarning o'zi ilohiy kuch ta'sirida amalga oshirilgan, Temurbek shunchaki "dispatcher"lik qilib turganmi? Savollar yog'ilib kelaveradi, ehtimol, bugun ham qiziqishlarning susaymayotgani sabablaridan biri har qanday chegaraga sig'maydigan savollarning ko'pligidandir. Agar siz asarning muhozaorku ruhiga tushib, jumla va gaplarni takror-takror o'qib, har bir tushunchani tafakkur qilsangiz, ko'p savollaringizga javob topasiz.

Balki yangi savollar paydo bo'lar, balki yangi xulosa va tushunchalarga guvoh bo'larsiz. Menimcha, bu asarning o'ziga xosligi ham shunda. Ko'plab muallif tasavvurlar oydinlashadi, xaylot osmonida yangi ufqlar paydo bo'ladi. Bular me'yordagi hol deb o'ylayman va shu yo'l bilan ulkan cho'qqiga yaqinroq boraverasiz. Ba'zan aniq tarixiy dalillar tilga kiradi: Arziyon va Arzurum shaharlarining hokimi Tahuratan Boyazid va Qora Yusuf o'rtasida nishonda qoladi. U esa Amir Temurdan madad kutadi. Keyingi voqealar ziddiyatni yana ham kuchaytiradi. Umuman, muallifning har bir tarixiy voqega munosabati va sharhi o'ziga xos, takrorlanmas... Gohida raqamlar tilga kiradi: "Tuzuklar"ga ko'ra, davlat konsepsiyasi 4 ta qoida, 12 tartib, 12 ta tamoyil va 12 ta toifaga ajratiladi. Hirotda 350 madrasa bo'lib, ulardan har birida 40 ming odam o'qib, bir yilda 4000 talaba bitirgan. Muallifning maqsadga erishish uchun turli usullardan foydalanishi ham tahsinga loyiq. Axir yuzlab uzindilar, nufuzli

olimlarning fikrlarini isbot va dalil sifatida havola qilish, o'rni kelganda ular bilan munozaraga kirishish va fikrini isbotlash uchun salmoqli dalillar keltirish aytishga oson. Bir so'z bilan aytganda, ushbu tadqiqot monumental salmoqqa ega. Uning uslubi, bayon etish tartibi, ifoda usuli ham alohida tadqiqotlarga arziydi.

Asarga siyosiy fanlar doktori, professor Narzulla Jo'rayev muxtasar so'zboishi yozgan. "Olam va odam o'rtasidagi bog'liqlik ayni olam yaxlitligi va odam butunligidir. Aynan ana shunday mushtaraklik ularning har ikkovini ham to'ldirib, o'tmish, bugun va istiqbolni bog'lab turadi", deyiladi muqaddimada.

Kitob uch yirik bobdan iborat. Boblarning nomiyoq gap nima haqida ekanini aytib turibdi: birinchisi — Amir Temurning geosiyosiy strategiyasi. Ikkinchisi — Amir Temurning davlatchilik konsepsiyasi. Uchinchisi — Amir Temurning harbiy strategiyasi.

Ko'plab so'zlar tanish, agar notanish so'z yoki birikmaga duch kelgan bo'lsangiz, asarni o'qishga to'g'ri keladi. Shubhasiz, mavzuni bayon etishda muallif qanday qo'lqop kiygani yoki qaysi rangli ko'zoynak taqqani juda ahamiyatli. Sezishimcha, To'lqin Alimardonov qo'lqop kiymay va ko'zoynak taqmay ishlagan. Chunki har bir so'z yurakka yaqin joydan chiqqani va to'g'ri sahifaga tushgani sezilib turadi.

Muallif rost gapirayotganini dalillash uchun uch yuzga yaqin manbaning ro'yxatini keltiradi. Hatto muftiy hazrat Muhammad Sodiq Muhammad Yusufdan iqtibos olishni ham unutmaydi. Yana "1993-yilda Londonda Yangi Zelandiyadagi Kraysht Chyorch masih cherkovi universiteti professori S.Edexedning "Markaziy Osiyo jahon tarixida" nomli monografiyasi nashr etildi. Uning muhim qismi Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan edi. Kitob shu qadar muvaffaqiyatli bo'lganki, u o'rta maktablar uchun tarix darsligi sifatida tavsiya etilgan va Yangi Zelandiyada ham, Angliyada ham ko'p marta nashr etilgan...". deb qo'yadi quloqqa shipshiganday. Buning bilan "Oltin hamma joyda oltindir" demoqchi bo'ladi va uni qadrllovchilar har doim va har qachon topilishini ta'kidlab qo'yadi.

Muallif "So'nggi so'z"da kitobxonga "Ulug' maqsadlarga chorlagan umummilliy zafarlar, yuksak madaniyat, ilm-fan va bunyodkorlik rivoji qanday qonuniyatlarga tayandigan degan savollar oradan yetti asr o'tib, biz — yangi avlod olishi lozim bo'lgan ibrat va saboqlar nimalardan iborat ekanini anglashga da'vat etadi", deb murojaat qiladi va tartib bilan saboqlarni sanab ko'rsatadi. Bu hol ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.



Hakim SATTORIY, yozuvchi

Davlatimiz rahbarining Sohibqiron tavalludining 690 yilligini keng nishonlashga oid tarixiy qarori asosida o'tkazilgan, o'tkazilayotgan ko'plab xalqaro tadbirlar ana shu haqiqatni yana bir bor eslatadi.

Amalga oshirilayotgan harakatlar qatorida siyosatshunoslik fanlari doktori, professor To'lqin Alimardonovning "Amir Temur imperiyasi" monografiyasining nashr etilishini ham sanab o'tish ayni muddao. Kitob ilmiy-tahliliy salohiyati, mavzuga yangi nuqtayi nazar va uslub bilan yondashishi jihatidan muxlislarga munosib sovg'a bo'ladi. "Siyosiy-falsafiy tahlil" deya sharh berilgan asar hozirgacha temurshunoslikda erishilgan muvaffaqiyatlarning yangi sahifasi, go'yo ko'z ilg'amas cho'qqini kashf qilish yo'lidagi dadil qadamdir.

Mulohaza



"Bitta mulla, uch so'm pul, bir kalla qand"... Bu ibora asrlar davomida xalqimizning to'y-marosimlarga donishmandlarcha, vazmin va oqilona munosabatini ifodalab kelgan. Muayyan ijtimoiy-tarixiy davrlarda bu oddiy formula ortiqcha dabdaba va isrofdan ustun turuvchi ma'naviy poklikni, marosimning tashqi yaltiroqligi emas, balki uning botiniy mazmuni nechog'liq muhim ekanini anglatgan. U asrlar davomida millatning ma'naviy immunitetini asragan soddalik va samimiyat kodeksi edi.

Afsuski, bugungi globalashuv va iste'mol madaniyati kuchaygan davrda biz to'yni asl mazmunidan ayirdik. Uni ko'z-ko'z qilish, soxta shukuh va namoyishkorona dabdaba bilan almashtirdik. Aslida, to'y kimdir hayratga solish yoki ijtimoiy ustunlikni isbotlash musobaqasi emas. U nikoh asosidagi oilaviy marosim, ikki yosh taqdirining tutashuvi va ikki xonadonning umrbod rishta bog'lashidir.

Yangi hayot bo'sag'asi shovqin-suron, qarz-qavola va isrof bilan emas, balki sukutli samimiyat, duo va pok umidlilar bilan boshlanishi lozim. Chunki oilaning qadri qimmatbaho ashyolar, dabdabali avtomobillar karvoni yoki to'kin dasturxon bilan emas, balki ikki yoshning bir-biriga bergan ahdu paymoni, ota-onaning chin dildan qilgan duosi bilan o'lchanadi.

Biroq bugungi to'ylarimiz baxt ramzi bo'lish o'rni kimo'zarlikning shafqatsiz maydoniga aylanib ulgurdi. Bu marosimlarda oilaning quvonchi emas, balki moliyaviy qudrati, rutbasi va saxovati namoyish

etilmoqda. Ijtimoiy tabaqalanish mana shu to'ylar misolida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bugungi jamiyat to'yni, demakki, insonning qadri kim ko'p mehmon chaqirgani, kim qimmatroq to'yxonada joy buyurtma qilgan, qaysi to'yda dongdor san'atkorlar navbatda turgani kabi arzon, o'tkinchi mezonlar bilan o'lchamoqda. Natijada muqaddas qadriyat tijorat loyihasiga, baxt maskani esa soxta obro' talashdigan bahs maydoniga aylandi.

Bu musobaqada qanday bo'lmasin g'olib chiqish istagi ko'plab oilalarni imkoniyati chegarasidan chiqishga majbur qilmoqda. Odamlar ba'zan xorijda yillab musofirlik zahmatini chekib topgan mablag'ini bir necha soatlik dabdaba evaziga sovrarmoqda. "Undan nimam kam?", "Odamlar nima deydi?" kabi havoyi gap-so'zlar esa bu kimo'zarining asosiy yonilg'isiga aylanib qolgan.


Vaholanki, yaqin o'tmishimizda to'ylar har bir oilaning haqiqiy imkoniyati va tabiiy ehtiyojlariga qarab o'tkazilari, orzu-havas aql va andisha chegarasidan chiqmas edi. Ilgari xonadonlar o'z byudjetiga qarab ish

TO'YLAR — BAXT POYDEVORIMI YOKI BAHS MAYDONI?



tutar, to'yni ulug'vorligini dasturxonida emas, marosimning mazmuni boyligi va ma'naviy to'kinligida deb bilardi. Hozir esa vaziyat tamoman o'zgacha. "Birovdan kam bo'lmaslik" kayfiyati kuchayib, ko'pchilik to'yni ijtimoiy bosim va ko'rgazma uchun tashkil qila boshladi. Zamondoshimiz o'z cho'ntagiga, real sharoitiga emas, atrof-dagilarning ehtimoliy tanqidi va pichinglariga qarab reja tuzmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy bosimni, balki ma'naviy zo'rliqshni ham keltirib chiqarmoqda.

To'y chiqimi ko'p hollarda oilaning kelajagi uchun zarur uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki boshqa foydali o'rnlarga sarflanishi mumkin bo'lgan resurslarni so'rib olyapti. Natijada to'y baxting boshlanishi o'rni o'ta-onaning imkoniyati tugashi, yoshlarning xotirjamligi yo'qolishi va qarzlarning ibtidosiga aylanmoqda. Ayrimlar esa hatto kredit olib, bir kechalik shovshuvli to'y qilishga urinadi. Shu asosda bir kunlik dong taratuvchi to'y egasi uzoq yillik jabriyidagaga aylanadi.



Yaqin kunlarda tarqalgan bir qisqa videolavha har qanday insonni chuqur mushohadaq tortadi. Manzara chekka qishloqlardan birida bo'lib o'tayotgan to'ydan olingan: o'nlab jonliq so'yilgan, dasturxonlar to'la, to'kin-sochinlik go'yo hasham va to'qlik namoyishidek. Ammo kamera obyektiv sal nariroqni ko'rsatganda, bu daxmaza ortidagi achchiq va ayanchli haqiqat ayon bo'ladi: to'y egasining ham, unga havas qilib kelgan qo'shnilarning ham uy-joyining tomi shiferlanmagan. Kundalik sog'lom turmush uchun ehtiyot bo'lgan o'ldiy hamom yo'q, hatto hovlida yashillik ulashuvchi, soya beradigan bitta daraxt ham ekilmagan! Bu lavha bugungi ijtimoiy ongimizning tashxisi emasmi? Kundalik turmushimizning sifatini, farzandlarimizning quylayligi va sog'lig'imizni bir kunlik soxta obro' va "odamlar nima deydi?" degan vahima yo'lida qurbon qilyapmizmi?

Bu muammoni xorijdagi o'zbek blogerlari ham ko'tarib chiqmoqda. Ular boshqa davlatlar tajribasini misol qilib keltiradi. Masalan, Etronda nikoh marosimi ko'pincha oddiy shirinlik, qahva hamda samimiy diyor bilan o'tib ketarkan. Dunyo iqtisodiyotining yetakchilaridan biri bo'lgan Germaniyada esa to'ylar kamtarona "shvedcha stol" shaklida, besh-olti xil yengil gazak va ichimlik bilan, ortiqcha dabdabasiz o'tkaziladi. U yerlarda

hech kim to'yni ijtimoiy maqomni ko'z-ko'z qiladigan musobaqaga aylantirmaydi.

Insonlar o'zgalarning nigohi va majburiy qolipi uchun emas, balki o'z erkinligi, xotirjamligi va real imkoniyatlari bilan yashaydi. Bizda esa vaziyat mantiq va sog'lom fikr chegaralarini allaqachon buzib o'tgan. Ayrim to'yxonalarimizda dasturxon to'kinlik va seroblik belgisi sifatida qavat-qavat qilib taxlanadi. Stol ustiga idishlar va noz-ne'matlar shunchalik tirband, palapatish joylashtiriladiki, taklif etilgan mehmon bemalol taomlana olmaydi. Hatto u yerda o'tirishning o'zi mashqatli jismoniy zo'rliqshga aylanadi. Ko'z-ko'z qilish uchun qavat-qavat qilib taxlangan qimmatbaho taomlar, salatlar, pishiriqlar va mevalarning katta qismi hatto qo'l ham tegmagan holatda qolib ketadi.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: ortib qolgan yeguliklarning taqdiri nima bo'ladi? Ular chiqindiga chiqariladimi? Bu nafaqat isrof, balki uvul hamdir. Biz bir tomondan farzandlarimizga "Nonni yerga tashlama, uvul bo'ladi", deb tarbiya beramiz, ikkinchi tomondan esa bir kechada kilolab yegulikni chiqindiga ulotiradigan marosimlarning bosh ijodkoriga aylanamiz.

To'ydagi mezon miqdor bilan emas, me'yor va aql bilan belgilansa, ortiqcha manmanlik va riyokorlikdan bir oz chekinib, ma'tadillikni tanlasak, turmushimiz va ruhiyatimiz ham o'z-o'zidan yengillashadi. "Odamlar nima deydi?" degan qo'rquv bilan yashashni to'xtatib, to'ylarimizni "odamlar nima desa desin" tarzida o'tkazsak, tejalgan pulni salomatligimizga, ta'limga, oila farovonligi uchun sarflasak, shunda hayotimiz to'kis bo'ladi.

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatini chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-646. 30166 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxonasi: (71) 233-56-33 Devonxonasi va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Web-sayti: www.yuz.uz (71) 233-47-05 Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.